ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY

2023, №4

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

DJURAYEV R.M.
Jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazorat: nazariy va amaliy yondashuv **3**
ISLOMOV B.D.
Yangi tahrirdagi asosiy qonunimizda adolat tamoyillari ustuvor **10**
MAMAYUSUPOV S.D.
O‘zbekistonda desekulyarizatsiya jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri **14**
USMONOV M.B.
Yer muhofazasi sohasidagi jinoyatlarning jamoat xavfsizligiga ta’sirini oldini olish muammolari **18**
MUXAMMADIYEV A.A.
Tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo‘riqlash masalalari **23**
NURMATOV M.M., RIZOYEV F.F.
Huquqbuzarliklarni oldini olishning zamonaviy usullari **27**
CHINIYEV D.A.
Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – davlatimiz taraqqiyot yo‘lining asosiy maqsadi **33**
AXMEDOVA M.T., MUINOVA N.A.
O‘zbekistonda ayollar saylov huquqining tartibga solinishiga oid muhim masalalar **39**
XOLBO‘TAYEV A.A.
Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar tushunchasi **45**
ZOKIROV B.P.
Xorijiy davlatlarning jinoiy aktivlarni qaytarish bo‘yicha ijobiy tajribalari (Qozog‘iston misolida) **51**
NAZAROVA L.G.
Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish **55**
ЮСУПОВ Н.А.
Особенности стадий административно-правового регулирования производства служебной проверки в Республике Узбекистан **62**
USMONOV B.A.
Firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning protsessual tartibi **67**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

OLIMJONOV X.M.
Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish **71**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy holati **75**
XO‘JAMBERDIYEV F.K.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonunosti hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati **80**
ATAJANOV O‘.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi **88**
TOSHMUXAMMATOV A.Y.
Milliy gvardiyaning ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdagi faoliyatini samarali tashkil etish istiqbollari **96**
QODIROV T.T.
Uchuvchisiz uchish apparatlarini jamoat xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyati (terrorizmga qarshi kurash misolida) **103**
SADULLAYEV T.Sh.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlarni takomillashtirish **109**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR

III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

ANARKULOV A.D., XAYDAROV N.S., DAVRONOV O.O.
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari (xodimlari)ning pul ta'minotini hisoblash va to'lash tartibini zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish **114**
BUZRUKOV U.S.
Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar harbiy xizmatchilarni tayyorlashda maxsus taktik tayyorgarlikning roli.. **118**
DUSCHANOV Sh.Sh., SHOMUROTOV Z.Z.
Tog'-balandlik tayyorgarligida zamonaviy trenajyor ("Skalodrom" universal majmuasi)ning roli..... **122**
GIYASOV D.F., KUVONDIKOV Z.K.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning pedagogik shart-sharoitlari..... **126**
BERDIYEVA U.U.
O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish..... **133**

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

NURMATOV M.M., ELOV A.A.
Iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri..... **142**
YUSUPOVA D.D.
Islom siyosiylashuvining tarixiy xususiyatlari **148**
RAVSHANOV S.G'., BOBOQULOV Z.R.
Turk madaniy diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari **152**
MUINOVA N.A.
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va gender tengligini ta'minlashga oid masalalar..... **158**
QO'YSINOVA F.O.
Ekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or amaliyotlar: O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi..... **163**
TOLIPOV A.A.
Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni..... **170**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari..... **176**
CHINIBAYEV J.I.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilishning muhim omili (jismoniy tarbiya va sport misolida)..... **181**

V. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI
V. EDUCATION, EDUCATIONAL PROCESS

SHIRINOVA N.D.
Ingliz tili darslarida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining bilish faolligini oshirish muammolari..... **189**
TOSHEV A.A.
Ikkinchi jahon urushidan so'ng xorijiy davlatlar armiyalarining shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borishi va janglardan orttirilgan tajribalari..... **193**

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
VI. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

АЛИМОВА Г.А.
Теоретические аспекты оценки военно-рекреационной аттрактивности территорий..... **197**

VII. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VII. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

XOLIQOV Sh.A.
Onlayn ijtimoiy tarmoqlardan botlarni aniqlash (mashinali o'rganish usullaridan foydalanish misolida)..... **204**
FAYZIBAYEV Sh.S., RAXMIDDINOV I.O., ShOISAYEV A.A.
Maxsus o'ziyurar harakat tarkibining elektr jihozlarining texnik holatini hisobga olgan holda oraliq ta'mirlash davrlarini optimallashtirish modellari **210**
IMINOV A.A., KAMOLOV A.A.
Favqulodda vaziyatlarda harakatlanuvchi uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish istiqbollari..... **216**

VIII. XORIJIY TAJRIBA
VIII. FOREIGN EXPERIENCE

НАМЫСОВ Е.Д.
Освещение отдельных аспектов интернет-мошенничества по уголовному законодательству Республики Казахстан..... **221**
РАШИДОВА К.И.
Понятие рабства и его современных форм в международном праве..... **226**
ДЕВЯТКИН А.В.
Организационные основы системы подготовки квалифицированных кадров Вооруженных сил Китая на современном этапе..... **233**

Muinova Nilufar Abdukarimovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISH VA GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHGA OID MASALALAR

Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeyini yanada mustahkamlash islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.
Sh. Mirziyoyev.

Davrimizning umumbashariy muammolaridan biri bo‘lgan zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, ayniqsa ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni kelib chiqishining tarixiy-etnik, ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma’naviy, huquqiy-axloqiy va boshqa omillarini nazariy va amaliy tadqiq etish va ularni bartaraf etishning konseptual yo‘nalishlarini ishlab chiqish hozirgi zamon ijtimoiy fanlari oldida turgan dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Yangi O‘zbekistonda inson manfaati va qadrini yuksaltirishga qaratilgan jarayonlarda ulkan islohotlar olib borilmoqda. Jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquq hamda imkoniyatlarini ustuvor qadriyatlardan biri sifatida himoya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yangi O‘zbekistonda gender masalasiga yangicha qarashlar va yangicha yechimlar amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, davlatimizni inson huquqlari bo‘yicha umum e’tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan 1995-yil 18-avgustdagi “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e’tibor berilayotganligini ko‘rsatadi. Bunda belgilandiki, Gender strategiyasini 2023-2030 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun har yilda alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanadi [1].

Oliy majlis Senatning 15-yalpi majlisida O‘zbekistonda 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinishi ham jamiyatda erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish hamda insonning fundamental huquqlariga rioya qilish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda gender tenglik targ‘ib qilinishini ta’minlashga xizmat qilishi shubhasizdir. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash strategiyasida barcha uchun teng huquqli va sifatli ta’limli ta’minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma’lumotga ega bo‘lishi, xotin-qizlar gender tengligiga erishish, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan [2].

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan inson qadri ustuvor bo‘lgan yangi O‘zbekistonda ayol qadri ham alohida o‘ringa ega [3]. Shu sababli Respublikamizda ayollarga nisbatan barcha zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan turli huquqiy, siyosiy, ma’muriy va madaniy dasturlarni yanada takomillashtirish hamda bu hodisani bartaraf etuvchi maxsus qonun va qarorlar qabul qilindi.

Ana shunday qonuniy hujjatlardan biri

2021 yil 19 maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror [4] va 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonundir [5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevga Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida "Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat. Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlarni olib " [6], - deb ta'kidlagan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganlari haqida ma'lum qiladi. Ayollar o'limining 38 foizi ularning turmush o'rtog'i tomonidan amalga oshiriladi va zo'ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so'zlaydi.

Zo'ravonlik bu bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan qasddan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazishidir. Oilaviy zo'ravonlik esa oila a'zolarining boshqa a'zolariga (xotin, ota-ona, bolalar va boshqalar) ustidan hukmronlik va nazorat qilish maqsadida, odatda aynan bir shaxsga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'rlik qilishdir. Umuman olganda butun dunyoda statistik ma'lumotlarga ko'ra aksariyat hollarda oilaviy zo'ravonlikdan xotin-qizlar va bolalar jabr ko'radi.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar qilinayotgan bir vaqtda, mazkur sohadagi ishlar tahlili oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda qator kamchilik va to'siqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oiladagi zo'ravonlik muammosi o'tkirligicha qolmoqda. Oiladagi zo'ravonlik bugungi kun muammosi bo'lsada, bugunning yangiligi emas. Bu illat qadim zamonlardan beri turli millat fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy maqomidan va dinga bo'lgan e'tiqodidan qat'i nazar ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan.

Oiladagi zo'ravonliklarni bartaraf etmasdan turib, jamiyatda gender tengligiga erishib bo'lmasligini barcha birday tushunadi. BMT Bosh Assambleyasi ham 1993 yilda qabul qilgan Deklaratsiyasida "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik" tushunchasiga aniqlik kiritib, uni er-xotin o'rtasidagi tarixan yaratilgan tengsizlikning natijasi deb e'tirof etdi, endilikda ayollar inson huquqlaridan to'laqonli foydalanish huquqiga ega, degan fikrni ta'kidladi hamda ayollarning inson huquqlaridan to'la bahramand bo'lishlari oiladagi zo'ravonlik ildizlarini yo'q qiladi, degan ishonchda ekanligini bildiradi [7].

Deklaratsiya oilaviy zo'ravonlik holatiga aniqlik kiritib, uni inson huquqlarini poymol, qiluvchi ayollarga qarshi bo'lgan, gender asosida yo'naltirilgan zo'ravonlik deb qabul qildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning nodavlat, notijorat tashkilotlari ayollar muammolarini hal etish uchun xotin-qizlar qo'mitalari, oila markazlari hamda mahalla faollari bilan bir yoqadan bosh chiqarib, faoliyat ko'rsatmoqdalar. Xotin-qizlar uchun tashkil qilingan inqiroz va ishonch markazlari, ishonch telefonlari ayollarga huquqiy, ruhiy va tibbiy maslahatlar bermoqda.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari yildan yilga oshib bormoqda. O'tkazilgan natijasiga qaralsa, unda ishtirok etgan ayollarning 42 foizi o'zi va farzandlarini boqa olmasligidan qo'rqib zo'ravonlikka chidasa, yana 38 foizi boshqalar tomonidan muhokama (gap-so'z) bo'lishdan qo'rqib zo'ravonlikka ko'z yumadi. Bosh prokuratura bergan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda nomusga tegish holatlari 27,7 foizga oshgan.

IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi xabar berishicha, 2021 yilning yanvar-mart oylarida zo'ravonlik

holatlari qayd etilishi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ortgan.

2021 yilda ayollarga zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazish bilan bog‘liq 598 ta ish ko‘rilib, 508 nafar shaxsga ayblov hukmi chiqarilgan. Xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining 73 foizi ularning oilalarida sodir etilgan”, deyiladi ma’lumotda.

Murojaat qilgan shaxslarning 5209 nafari ruhiy, 3813 nafari jismoniy, 166 nafari iqtisodiy, 44 nafari jinsiy zo‘ravonlik hamda 1838 nafari zulm va tazyiq o‘tkazishlarga uchraganini aytishgan [8].

Ko‘rinib turibdiki, barcha yoshdagi ayollar oilada oilaviy zo‘ravonlikning keng tarqalganligini ta’kidlashgan.

Oilaviy zo‘ravonlikning asosiy sabablari tadqiqotlar orqali o‘rganilganda birinchi oiladagi iqtisodiy qiyinchilik, ikkinchi o‘rinda erning rashki, qaynona bilan kelisha olmaslik, erning alkogol iste’mol qilishi hamda er ma’lumotining pastligi va boshqalar ma’lum qilingan. Qishloq ayollarining 76,9 foizi zo‘ravonlikning asosiy sababi iqtisodiy qiyinchilik ekanligini e’tirof etishgan. Shaharda yashovchi ayollarning 39,5 foizi mana shu fikrni tasdiqlashgan. Bu fikrga xizmat ko‘rsatish sohasida ishlayotganlarning 80,0 foizi, xalq ta’limida ishlayotganlarning 57,1 foizi, uy bekalarining 56,3 foizi, o‘rta ma’lumotlilarning 52,9 foizi, 20 yoshga kirmagan ayollarning 66,7 foizi va 20-24 yoshdagilarning 66,7 foizi qo‘shilishadi. Bu ayollar ham daromad manbaiga ega bo‘lmaganliklari uchun iqtisodiy jihatdan eriga qaramdirlar. O‘zbek oilasida qaynona-kelin o‘rtasidagi munosabat murakkab hisoblanadi. Shu sababdan ham 20-24 yoshli ayollarning 66,7 foizi qaynonasi tomonidan zug‘um ko‘rganligini e’tirof etishmoqda.

Oiladagi zo‘ravonlikning yana bir sababi - alkogoldir. Oila a’zolarining yoki erning spirtli ichimlik ichib, janjal ko‘tarishini 21,1 foiz shahar ayollari tan olishgan. Toshkent shahrida yashagan ayollarning 36,4 foizi mana shu fikrni e’tirof etishgan.

Erining ma’lumoti va madaniyati pastligi tufayli zo‘ravonlik sodir etganligini 23,5 foiz o‘rta ma’lumotga ega, 20,0 foiz oliy ma’lumotga ega ayollar bildirishgan [9].

Ichki ishlar vazirligi hamda Gender tenglikni ta’minlash komissiyasi tomonidan 8158 ta holatda eri tomonidan xotiniga, 322 tasi qaynona tomonidan keliniga, 229 tasi kelini tomonidan qaynonasiga tazyiq o‘tkazish holatlari bo‘yicha, hamda qolgan 2361 tasi boshqalarga «Himoya orderi» rasmiylashtirib berilgan.

Oiladagi zo‘ravonlikning negizida (tarixan yuzaga kelgan tengsizlik holati yotadi. Oilada ayolga nisbatan zo‘ravonlikning yana bir sababi – jamiyatda mavjud gender urf-odatlari (steriotiplari)dir. Ayni shu holatlar zo‘ravonlikning turli-tuman ko‘rinishlarining sodir bo‘lishiga olib keladi va shu tufayli “gender zo‘ravonligi” deb ataladi.

Gender zo‘ravonligining tub negizini anglagan holatdagina uning turli-tuman ko‘rinishlariga barham berish mumkin bo‘ladi. Shunda biz ayol hayotidan zo‘ravonlik illatini mutloq yo‘qotishdek asosiy maqsadga erishishimiz mumkin. Zero, mamlakatimizda yashayotgan har bir ayol qo‘rquvsiz va zo‘ravonliksiz hayot kechirish huquqiga ega. Ayolga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish, qonun va huquq ustuvorlik qilayotgan demokratik jamiyat, huquqiy davlat tamoyillariga ziddir.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Ayollar huquqiy madaniyatini shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi ayrim eskirgan milliy urf-odat va kamchiliklar mavjud. Masalan, oilada qizlarga yuklatilgan mehnat, erta nikohlilik, poligamiya, ularning kasb tanlashi, ta’lim olishi, ishda yuqori pog‘onalarga ko‘tarilishiga ruxsat bermaslik, o‘zining mehnati evaziga topgan mablag‘ini o‘zi tasarruf etishga imkoniyat yo‘qligini qayd etish zarur.

Bunday stereotiplar oiladagi zo‘ravonlikni yuzaga keltiradi. Oiladagi zo‘ravonlik dunyo bo‘yicha keng ildiz otgan illat hisoblanadi. Bu zo‘ravonlikni oziqlantiruvchi ildizlar erkak va ayol fe’l-atvoriga singdirilgan, qonunlashtirilib qo‘yilgan. Bunday xulq-atvor asosida avvalo

diniy-an'anaviy tarbiya yotadi.

Erkak zo'ravonlik sodir etishni o'z muammosining yechimini topishdagi birdan-bir yo'l deb qabul qiladi. Odatda, o'g'il bolalar qattiqqo'l, bir so'zli, hattoki jahldor va tajovuzkor, qizlar esa, aksincha, muloyim, gap qaytarmaydigan, indamas, sabr-toqatli, har qanday sharoitga moslasha oladigan tarzda tarbiyalanadilar. Aholida huquqiy tarbiyani takomillashtirish, gender tengligiga erishishga harakat qilish oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi. Farzandlarni esa oilaviy hayot uchun zarar keltiradigan salbiy an'analarga o'rgatmay, bevosita gender tengligiga asoslanib tarbiya berish o'rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o'rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlarning zo'ravonlikka uchrashini oldini olish uchun qator tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali xotin-qizlar bandligini ta'minlashni yanada takomillashtirish;

- ijodkor ayollarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni yanada keng yo'lga qo'yish, ularni rag'batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;

- huquqiy ta'limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish, oila qurish arafasida bo'lgan qizlarga turmush davomida erkak bilan bo'ladigan turli munosabatlarda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usini o'stirish;

- siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o'rinlari ustida yangicha yondashuv;

- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o'zaro hurmat va bir-birini tushunish tarzida amalga oshirish;

- nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioya qilgan holda, ayolning jamiyatdagi o'rnini topishda, kasb-hunar masalalarida qo'llab-quvvatlash;

- nohaqlikka uchragan, zo'ravonlik qurboniga aylangan xotin-qizlar bilan davlat, jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini ishlab chiqish kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги "2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида Гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида"ги СҚ-297-IV-сонли Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси Сенатининг «2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида» ги қарори. [Электронный ресурс] https://lex.uz/docs/5466673

3. Мирзиёев Ш. М «Янги Ўзбекистон стратегияси»- Т.: Ўзбекистон, 2021. 247-251 бетлаphttps://uza.uz/uz/posts/2022-2026-yillarga-molzhallangan-taraqqiyot-strategiyasi-insonqadrini-uluglashga-xizmat-qiladi_335186.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5116-сон қарори [Электронный ресурс] https://lex.uz/docs/5670659 https://lex.uz/docs/5670659

5. "Хотин- қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. [Электронный ресурс] https://lex.uz/docs/4494709

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар ташкилоти Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси 2023 йил 20 сентябрь.

7. Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998. 1– 3 бетлар.

8. Хотин-қизларга зўравонлик ҳолатларининг 73 фоизи оилаларда содир этилган - АОКАда матбуот анжумани ўтказилди. [Электронный ресурс] https://moqqv.uz/uz/news/xotin-qizlarga-zoravonlik-holatlarining-73-foizi-ilalarda-sodir-etilgan-aokada-matbuotanjumani-otkazildi.

9. Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Монография. Алишер Навоийномидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонси нашриёти. 2010.-116-127 бетлар.

Muinova N.A. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish va gender tengligini ta’minlashga oid masalalar

Maqolada hozirgi davrda eng muhim ijtimoiy muammolardan biri bo‘lgan ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatish va tazyiq o‘tkazishning tarixiy, ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy omillari tahlil etiladi. Muammoning O‘zbekistondagi hozirgi holati va ularni bartaraf etish jamiyatda gender tengligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi mavjud ilmiy, ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ilgari surilgan g‘oyalar, hamda muallif tarafidan o‘tkazilgan konkret sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etish orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ayollar, ayollar huquqi, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, tazyiq, gender, gender tengligi, gender tengligini ta’minlash.

Муинова Н.А. Искоренение насилия в отношении женщин - важное условие обеспечения гендерного равенства

В статье анализируются исторические, социальные, правовые и моральные факторы применения насилия в отношении женщин и их преследования, которые являются одной из важнейших социальных проблем современности. Современное состояние проблемы в Узбекистане и тот факт, что их устранение является одним из важных условий обеспечения гендерного равенства в обществе, раскрывается путем анализа идей, выдвинутых в существующей научной, социально-философской литературе, а также результатов конкретных социологических исследований, проведенных автором.

Ключевые слова: женщины, права женщин, насилие, насилие в семье, преследование, гендер, гендерное равенство, гендерное равенство.

Muinova N.A. The elimination of violence against women is an important condition for ensuring gender equality

The article analyzes the historical, social, legal and moral factors of the use of violence against women and their persecution, which are one of the most important social problems of our time. The current state of the problem in Uzbekistan and the fact, that their elimination is one of the important conditions for ensuring gender equality in society, is revealed by analyzing the ideas put forward in the existing scientific, socio-philosophical literature, as well as the results of specific sociological studies conducted by the author.

Key words: women, women’s rights, violence, domestic violence, harassment, gender, gender equality, gender equality.

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna,
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi Markaziy apparati bosh mutaxassisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

EKSTREMIZM VA RADIKALIZMNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ILG‘OR AMALIYOTLAR: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Kirish. Jamiyat va zamonaviy dunyo taraqqiyotini ta’minlash uchun radikalizmga, zo‘ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurashish yo‘li bilangina erishish mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. “XX asr oxirlarida din niqobi ostidagi guruhlar islomning yashil bayrog‘idan foydalangan holda harakat qilishlari, ularning radikal to‘lqinlarini tezda ilg‘ashning imkonini yo‘qotdi”[1]. XXI asr boshlariga kelib ichki va tashqi omillar sababli ayrim mamlakatlarda islom dinining siyosiylashuvi hamda radikallashuvi kuzatildi. Radikalizmga, zo‘ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurash muammosi nafaqat O‘zbekiston yoki Markaziy Osiyo uchun, balki, butun musulmon mamlakatlari uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan, muammolardan biriga aylandi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ingliz radikalizmining asosiy g‘oyalari utilitarizm asoschilari hisoblangan I.Bentam va Dj.S.Mill singari nazariyotchilar ta’siri ostida shakllangan. Rossiyalik olim S.Samoylov tadqiqotida radikalizm g‘oya emas, balki xulq-atvor modeli deya keltirilgan. olim Y.Yaxyoyev radikalizmni ilg‘or inqilobiy rivojlanishni nazarda tutuvchi konstruktiv, buzg‘unchi konservatizmni ilgari suruvchi destruktivlashishga ajratadi. Olim har ikkala yo‘nalish ham mavjud hokimiyat tizimini va jamiyat asoslarini yo‘q qilishni nazarda tutishini ta’kidlaydi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zo‘ravon radikalizmga qarshi kurasha borasida turli davlatlarning o‘ziga xos uslublari, hayotiy tajribalari mavjud bo‘lib, quyida ushbu tajribalarni tahlilga tortamiz.

Radikalizmga qarshi kurashayotgan davlatlardan biri – Saudiya Arabistoni. Arabiston yarim orolida joylashgan ushbu mamlakat, garchi islom dinining markazi, jamiyatning bir muncha konservativligi bilan ajralib tursada, radikalizmga qarshi kurashish bo‘yicha juda katta tajribaga egaligi bilan ham alohida e’tiborga molik davlat hisoblanadi. So‘nggi yillarda radikal kuchlar tomonidan Internet tarmog‘idan o‘z g‘oyalarini kengroq tarqatish va shu yo‘l bilan o‘z tarafdorlari sonini orttirishga bo‘lgan urinishlarining ortib borishi sharoitida Saudiya hukumatini jamiyat va undagi yoshlar qatlamining radikallashuvi oldini olish borasida profilaktik choralarni kuchaytirishga undamoqda. Mamlakatning Din ishlari bo‘yicha vazirligining yordami bilan islom ulamolari, olimu-fuzalolari radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolganlar bilan aloqaga kirishadilar va ular bilan bahs yoki muloqotga kirishishdan oldin qamoqxonalarda radikal qarashlari uchun jazo muddatini o‘tayotganlar bilan bo‘lgan muloqot tajribalaridan foydalangan holda, sayt foydalanuvchilaridan diniy talqinlari borasidagi Qur’on talqinlarini tushuntirib berishlarini so‘raydilar[2]. Bunday yozishmalar Internet tarmoqlariga joylashtiriladi va boshqa foydalanuvchilarni islomning va uning g‘oyalarining zo‘ravonlikka qarshi ekanligidan xabardor qilishda foydalaniladi.

Garchi, radikallashuv jarayoniga turli yoshdagilar duch kelsalarda, odatda o‘smirlar va yoshlar qatlami o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlari yoki daxldorlik hissi tufayli zo‘ravon ekstremizm va terroristik radikallashuv mafkuralari uchun nozik qatlam hisoblanadi. Bunday amaliyot joriy qilinishida ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribalaridan ham foydalaniladi. Ular ichida – radikallashuv hodisasini o‘rganish va shu asosda, radikallashuv ehtimoli yuqori bo‘lgan yoshlar qatlamini maktabdan tashqari

mashg‘ulotlarga (sport, turizm, dunyoviy fanlar, kosmonavtika va hokazo), volontyorlik sohasiga keng jalb qilish (masalan, keksalarning uylariga tashriflar, masjidlar va ijtimoiy maskanlarni tozalash, turli konkurslar tashkil qilish va o‘tkazish, mehnat va ta’lim yordamlarini ko‘rsatish, ota-onalarga yordam berish keng jalb qilish tashkil qiladi. Bunday faoliyatning katta qismi yoshlar tashkilotlari bilan ishlashga yo‘naltirilmoqda.

Shular bilan bir qatorda, Saudiya Arabistoni ichki ishlar vazirligi qoshidagi Media-maslahat qo‘mitasi maktablar va masjidlar uchun ko‘plab o‘quv materiallari va broshyuralar chop qiladi. Ushbu qo‘mitaning asosiy ishi yoshlar o‘rtasida ta’lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. OAVlar va boshqa axborot kanallari orqali yoshlarning ekstremistik kuchlar ta’siriga tushib qolishlarining asosiy sababi sifatida islomni to‘g‘ri va aql bilan tushunmaganligi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, hukumat tomonidan radikallashuvga qarshi siyosiy va huquqiy choralar ham kuchaytirilgan bo‘lib, ko‘plab radikallar jinoiy javobgarlikka tortiladilar va oxir-oqibat, to‘g‘ri yo‘lni tanlamaganligi uchun o‘limga hukm qilinadi. Bu amaliyot oxirgi keskin chora sifatida qo‘llaniladi. Lekin mamlakatda radikallashuvga qarshi eng samarali kurash – bu mafkuraviy kurash ekanligi allaqachon anglab yetilgan.

Mafkuraviy ishlar qatorida, o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lgan sobiq radikallar bilan bo‘lgan intervyular, Suriya va boshqa mamlakatlardagi jangarilarning jinoiy qilmishlari, alkogol va narkotik moddalar iste’moli bilan bog‘liq “jirkanch” ishlari doimiy ko‘rsatib boriladi va bu holatlar ham zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida jadal olib boriladi[3].

Zo‘ravon ekstremizga qarshi kurash borasida katta tajribaga ega bo‘lgan, texnologik jihatdan tobora taraqqiy etib borayotgan yana bir davlat – Turkiya Respublikasi bo‘lib, mamlakatda radikal kuchlarga qarshi kurashish bilan bog‘liq juda zalvorli tarix mavjud. Bugungi Turkiya radikalizmga qarshi kurashishning yorqin misoli sifatida ham qayd yetiladi.

Turkiyada deyarli 20 yil davomida mo‘tadil islomiy, shuningdek, asosiy mafkurasi “konservativ demokratiya” bo‘lgan Adolat va taraqqiyot partiyasi hukmronlik qilayotgan bo‘lsada, mamlakat radikallashuvga, zo‘ravonlikka samarali qarshilik ko‘rsata olmoqda. Buning asosiy sababi sifatida biz islom va dunyoviylik o‘rtasida shakllangan muvozanatli munosabatni keltirishimiz mumkin. Mamlakatda turli siyosiy qarashlarning mavjudligi, ham diniy va ham dunyoviylikning o‘zaro “til topishishi” bilan bog‘liq jarayonlar tarixiga deyarli 100 yil bo‘ladi. O‘z vaqtida Turkiya Respublikasining asoschisi Mustafo Kamol Otaturk ekstremistik kuchlarga qarshi olib borgan murosasiz kurashi tufayli mamlakat butunlay sekulyar jamiyatga aylantirilgan edi. Ammo, o‘tgan asrning 80-yillarida sodir bo‘lgan islom uyg‘onishi bilan bog‘liq xalqaro jarayonlar Turkiyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi[4]. Ammo, mamlakatda dunyoviylikning, ilm-fanning, modernning keng targ‘iboti tufayli, shuningdek, yoshlarda islom yoki diniylikka qaraganda, milliylikni (buyuk Turk millati) tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan asosiy e’tibor tufayli bugun mamlakat diniy ekstremizmga qarshi samarali kurash olib bora olish layoqatini yo‘qotmagan. Mamlakatda diniy va dunyoviy tuzum tarafdorlari o‘rtasidagi qarashlarda kelishmovchilik bo‘lsada, dunyoviy hayot tarafdorlari tomonidan Turkiyaning o‘z modernizatsiya loyihalari mavjudligi, liberal hayot, demokratiya va fuqarolik institutlarining shiddati kabilar siyosiy jarayonlarning asosini tashkil qiladi.

Zo‘ravonlikning ikkinchi tomoni – bu millatlararo munosabatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, Turkiyada mavjud kurd millatining mustaqillikka erishish uchun jon-jahdi bilan kurashishi, millatchilik va separatizm g‘oyalariga yo‘g‘rilgan zo‘ravonlikning avj olishi bilan bog‘liq holatlar tez-tez sodir bo‘lib turadi. Bunga qarshi garchi, Turkiya aksariyat hollarda

harbiy yo'l bilan kurashsada, lekin millatlararo munosabatlarda ham muvozanatni ta'minlashga alohida mafkuraviy e'tibor qaratiladi.

Turkiyada sekulyar jamiyatning mezonlari bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda va jamiyatning o'zi har qanday zo'ravonlikka qarshi kurashish borasida katta immunitetga ega. Bunday yutuqqa erishilishining asosi – bu mamlakatda ta'lim tizimining tobora zamonaviylashib borayotganligi, aholining aksariyat qismi ma'rifatliligi, Yevropa bilan integratsiya jarayonlarining parametrlari mavjudligi, mamlakatda turli millatlar va elatlarning, diniy konfessiyalarning o'zaro yelkama-yelka hamkorligini ko'rsatish mumkin.

Ekstremiz va zo'ravonlikdan jabr ko'rayotgan davlatlardan yana biri sifatida Pokistonni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu mamlakat aholi soni bo'yicha juda katta musulmon mamlakatlaridan biri bo'lib, so'nggi vaqtlarda islomiy ekstremizmdan, radikalizmdan ko'p jabr, zulm ko'rayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. O'tgan asrning o'rtalarida dastlab Britaniyadan mustaqillikka erishgan, keyin esa Hindiston bilan fojiali tarzda "bo'linish"ni boshdan kechirgan Pokiston o'z tarixi davomida ko'p musibatli kunlarni boshdan kechirdi[5]. Ammo, demokratik taraqqiyot borasida katta salohiyatga ega mamlakat bugungi kunda zo'ravonlikka ham qarshi tura olayotgan, G'arb davlatlari bilan samarali hamkorlik qila olayotgan, eng asosiysi zamonaviy boshqaruvni qo'ldan boy bermayotgan mamlakat hisoblanadi.

Buning o'ziga xos sabablari sifatida, Pokistonning Konstitutsiyasini alohida tilga olish mumkin. Islomchilarning ta'siri u darajada yuqori bo'lmagan vaqtda ijod qilingan mazkur Konstitutsiya yozilishida Yevropada yashagan va dunyo taraqqiyotini, yutuqlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan taniqli shaxslarning roli nihoyatda yuqori bo'lgan edi. Birgina shu omilning o'zi mamlakatda zo'ravonlik va ekstremizmga qarshi kurashning muhim huquqiy asosi bo'lganligini e'tirof etgan holda, mamlakatda radikallashuvga qarshi kuchlarning, siyosatchilarning, partiyalarning, jamoat tashkilotlarining ham roli nihoyatda yuqori ekanligini tan olmoq joiz.

Bugun mamlakat islomiy radikal kuchlarga qarshi murosasiz kurash olib borayotganligi va bu borada ko'plab davlatlar tajribalariga tayanayotganligi, millatlararo munosabatlardagi (asosan Panjobliklar va Pushtunlar) ziddiyatlarni bartaraf etish uchun zamonaviy ta'limni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratayotganligini e'tirof etmoq joiz[6].

Shu bilan bir qatorda, mamlakat zo'ravonlik ta'siridagi yana bir jihat, ya'ni islomiy yo'nalishlar bo'lgan sunniylar va shialar o'rtasidagi ziddiyatlardan keng jabr ko'rayotganligini, doimiy nizolar (ko'pincha qonli tus olayotgan, ya'ni bir-birlarining masjidlaridagi portlashlar, o'zaro qarama-qarshiliklar, radikal chaqiriqlarga ergashayotgan yoshlarning xavfli harakatlari) mamlakatning barqarorligiga ham keng xavf solayotganligini, lekin mamlakatda tobora mustahkamlanayotgan demokratik qadriyatlar vositasida ularga qarshi samarali kurasha olayotganligini tan olish kerak.

Pokiston zo'ravonlik va ekstremizmga qarshi murosasiz kurash yo'lini tanlab, bu yo'lda ta'lim va mafkuraviy ishlarni tobora jadallashtirayotganligini, xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi rolini oshirish yo'li bilan kurashmoqda. Misol uchun, Pokiston Bosh vaziri lavozimida ham o'z vaqtida ayol kishi bo'lganligini, bugun ham mamlakatda ko'plab muhim lavozimlarni xotin-qizlar egallaganligi va ular vositasida jamiyatdagi radikal qarashlarga katta zarba bera olayotganligini e'tirof etmoq joiz.

Shuningdek, yoshlarning ko'p qismini xorijiy mamlakatlarda, asosan taraqqiy etgan G'arb mamlakatlarida ta'lim olishi, ularning o'qishni tugatib, mamlakatga qaytib kelishi va radikalizm emas, balki ma'rifiy taraqqiyot yo'lini tanlayotganligi, davlat organlaridagi lavozimlarni yegallashi, ular tomonidan dunyoviylik va texnologik taraqqiyotning muhim omil yekanligini targ'ib yetilishi Pokistonning zo'ravon ekstremizga qarshi

kurashining muhim yo‘nalishiga aylanganligi muhim tajriba sifatida ye’tirof yetilmoqda.

Zo‘ravon ekstremizmdan katta jabr chekayotgan yana bir ulkan musulmon mamlakati – bu Indoneziya bo‘lib, mamlakat bugungi kunda ko‘plab radikal kuchlarning nishoniga aylanmoqda. Davlatdagi vaziyatning murakkabligiga, 250 millionli aholining islom diniga e’tiqod qilishi va radikallashuvni targ‘ib qiladigan ko‘plab ekstremistik kuchlarning ta’sir ko‘rsatishini qayd etmoq lozim.

Indoneziyada islomning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun mamlakat hukumati, maxsus kuchlar, kuch tuzilmalari, zamonaviy musulmon ta’lim tizimi, “Muhammadiya” va “Nahdlatul ulamo” singari umummusulmon jamoat tashkilotlari yordamida samarali kurash olib bormoqdi. Ular tomonidan keng targ‘ibot ishlari ishlari olib borilib, unda islomning ma’rifatparvarlik va ilmga rag‘bat xususiyatlari ommaga taqdim qilinadi[7].

Bir tomondan, mamlakat elitasi faol tarzda radikallashuvga qarshi kurash doirasida o‘z tarixiy an’analarini targ‘ib qilish yo‘li bilan samarali kurashsa, ikkinchi tomondan, bu jarayonga butun davlat apparati, harbiy kuchlar agarki, radikallashuv mamlakat va jamiyat xavfsizligiga tahdid tug‘dira olish imkoniyatiga ega deya baholansa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashadi va har qanday faoliyat qat’iy chek qo‘yilishi bilan oldi olinadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, radikallashuvga qarshi kurash jarayonlariga mamlakatning taniqli, nufuzli musulmon jamoat va diniy-ma’rifiy tashkilotlari ham faol jalb qilinib, ular tomonidan radikalizmga qarshi kurashda tizimli kurashish yo‘llari va uslublari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan. Xususan, bunda mamlakatdagi katta obro‘ga ega bo‘lgan imomlar, ulamolar yordamida axborot va ilmiy faoliyat keng avj oldiriladi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatda radikalizmga qarshi kurashning faol ishtirokchilari sifatida islom universitetlari va boshqa qator diniy va dunyoviy ta’lim muassasalari maydonga chiqadi. Davlatning madaniy va ilmiy elitasi tomonidan olib boriladigan ma’rifiy ishlar musulmon aholining birinchi galda, siyosiy madaniyatini yuksaltirishni ham targ‘ib qiladi. Ular tomonidan G‘arb davlatlari va jamiyatlarining erishgan yutuqlari asosan ilmiy va ma’rifiy yo‘l yekanligi musulmon ummasiga doimiy tushuntirib borilishi keng yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatda tarixda saboq chiqarish, milliy va dunyoviy salohiyatni rivojlantirish, jamiyatning hamjihatligini ta’minlash, radikalizmning jirkanch basharasini ochib berish, zo‘ravonlikka qarshi ma’rifiy kurashish kabi omillar bu boradagi siyosatning ijtimoiy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi[8]. Zamonaviy Indoneziya ummaning faoliyati doirasida islomning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik, radikal va ekstremistik oqimlar va an’analarning profilaktikasi borasida samarali va hayotiy mexanizm taklif qila olgan mamlakat hisoblanadi. Bu mexanizm asosan ta’lim, islomiy tarbiyaning o‘ziga xos yo‘nalishlari, ustozlarga, millat ruhiyatiga cheksiz hurmat ko‘rsatish va hokazo uslublarni qamrab olgan.

Bugungi kunda islom olamida o‘z so‘ziga, qudratiga va o‘ziga xos taraqqiyot tendensiyasiga ega davlatlardan yana biri – Malayziyadir. Madaniy, milliy va mintaqaviy jihatdan Indoneziyaga yaqin bo‘lgan ushbu davlat ham bugun zo‘ravon ekstremizmga, radikalizmga yeng ko‘p duch kelayotgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda zo‘ravonlik va radikallashuvga qarshi uch umumiy dastur bo‘lib, ularning har biri zo‘ravonlikka va radikallashuvga qarshi samarali kurashni taqazo qiladi.

1. Hamma tomonni qamrab oladigan dastur: alohida olingan ekstremistlar mafkurasini va xulq-atvorini o‘zgartirishni, terroristik guruhlar tuzilmalarini buzishni amalga oshirish (garchi bunday dasturlar murakkab, qimmat, lekin muvaffaqiyati kafolatlangan).

2. Maqsadli dasturlar: alohida insonlar bilan ishlash va ularga o‘z qarashlari va xulq-atvorini o‘zgartirish taklifini berish.

3. Pragmatik dasturlar: asosiy maqsad – terrorchi yoki radikalning xulq-atvorini

o‘zgartirish (garchi murakkab bo‘lsada, ma’lum bir natijalarni qo‘lga kiritish ehtimoli yuqori).

Malayziyada ekstremistlarga ta’sir ko‘rsatishning maxsus dasturi uzoq muddatli bo‘lib, u kamida uch yilni qamrab oladi va unda kuch ishlatish, bo‘ysunmaydigan yoki qaytmaydiganlarga nisbatan qat’iy intizomiy jazolash qo‘llaniladi[9]. Bunday tajriba, uslub va texnologiyalarning ma’lum qismlarini Malayziya Indoneziya, Singapur shuningdek, Xitoydan o‘zlashtirgan. Bunga asosan qamalgan ekstremistlarga nisbatan diniy-ma’rifiy va psixologik faoliyat amalga oshiriladi. E’tiborli jihati ekstremistning ijtimoiy atrof-muhiti bilan ham faol ishlar olib boriladi. Masalan, ekstremistlarning oilasi ta’minoti uchun davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak ajratiladi va shu yo‘l bilan unga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maxbus yekstremistlarga bepul ta’lim beriladi va kasb o‘rgatiladi. Alohida ta’kidlash kerakki, o‘z yekstremistik va radikal mafkurasidan voz kechgan ba’zi sobiq mahbuslar boshqa radikallar bilan profilaktik ishlar uchun volontyor sifatida jalb qilinadi va ular uchun ma’lum bir ijtimoiy imtiyozlar ham yaratiladi.

Qamoq muddatini o‘tayotgan radikallarga qarshi kurashishning umumiy xususiyati ikki darajada, ya’ni individual va jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Bu vazifalar uch xil tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular: mahbusning qamoq muddatini o‘tab chiqqandan so‘ng jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish uchun diniy-ma’rifiy, psixologik va tibbiy faoliyat tarzida joriy qilinadi[10]. Shu yo‘l bilan jamiyat uchun “Yangi odam” yaratish konsepsiyasi dunyo yuzini ko‘radi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu mamlakatlar tajribalarini yetarlicha o‘rganish, tadqiq qilish asnosida O‘zbekistonda zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashish, radikallashuvning oldini olish va jamiyatda bunday salbiy unsurlar ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kerakli tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Manbalar tahliliga asosan biz ishlab chiqilayotgan tavsiyalarni quyidagicha amaliyotga joriy qilish lozim, deb hisoblaymiz:

1. Ekstremistik faoliyatga olib keladigan yoki jamiyatda radikalizm uchun asos bo‘layotgan holatlarni aniqlash;

2. Yoshlarda dunyoviylik ruhiyatini mustahkamlaydigan ilmiy, ma’naviy tadqiqotlarni ko‘paytirish va ularning xulosalarini amaliyotga joriy qilish;

3. Mamlakatda obro‘ga ega bo‘lgan diniy arboblar va ulamolarni ekstremizmga va radikalizmga qarshi profilaktik jarayonlarga keng jalb qilish;

4. Yoshlarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish orqali zo‘ravonlikka, ekstremizm va radikalizmga qarshi immunitetni mustahkamlash va kuchaytirish;

5. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda radikalizmning oqibatlari va uning sabablari to‘g‘risida qisqa lo‘nda axborotlarni tarqatishning ta’sirchan uslublarini va mexanizmlarini ishlab chiqish;

6. Radikal kayfiyati yoki ekstremistik xulq-atvori aniqlangan toifalar bilan ishlashning ma’rifiy uslublarini joriy qilish, ularni jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘qishlari va uni anglashlari uchun shart-sharoit yaratish, zarur bo‘lsa, bunga majbur qilish;

7. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizm aslida islom dinini qo‘llab-quvvatlash emas, aslida jamiyatni jaholatga boshlab, taraqqiyotdan ortda qoldiradigan va qoloqlikka yuz tutishiga sabab bo‘ladigan omil ekanligini ilmiy-ma’rifiy isbotlagan tadqiqot namunalarini yaratish va turli axborot vositalari orqali maqsadli auditoriyaga yetkazish;

8. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashish borasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, ularning mutaxassislarini ma’lum bir maqsadli vazifalar uchun jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ёдгоров Ш. Миср Араб Республикасининг диний экстремизм ва терроризмга қарши кураш тажрибаси (XX аср охири–XXI аср бошлари) //Общество и инноватsiи. –

2021. – T. 2. – №. 5/S. – C. 503-511.

2. Юрченко В.П. Саудовская Аравия: проблемы противодействия терроризму и исламскому экстремизму. http://www.iimes.ru/?p=3000

3. Rabasa Angel, Pettyjohn Stacie L., Ghez Jeremy J., Boucek Christopher. Deradicalizing Islamist Extremists. RAND Corporation, 2010. https://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/monographs/2010/RAND_MG1053.pdf

4. Шлыков П. Ближневосточная политика Турции в контексте «арабской весны». - URL: http://perspektivy.info

5. Jalal A. The Struggle for Pakistan. A Muslim Homeland and Global Politics. Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 2014, p. 63.

6. Talbot I. Pakistan. A New History. Karachi: Oxford University Press, 2012, p. 126-130.

7. Файншмидт Р. И. Факторы радикализatsii ислама в Индонезии в конце XX-в начале XXI в //Власть. – 2021. – №. 4. – С. 285-289.

8. Akmaliah W., Burhani A. Digital Islam in Indonesia: The Shift of Ritual and Religiosity during Covid-19 // Researchers at ISEAS - Yusof Ishak Institute analyse current events. 2021. No. 107. URL.:

9. Сысоев А. М., Аболмасова Т. Е. Зарубежный опыт по реализatsii пенитенциарных программ дерадикализatsii экстремистов с применением основ традиционных вероучений //Человек: преступление и наказание. – 2016. – №. 3 (94). – С. 48-52.

10. Скобелева О.О. Разработка и осуществление программ дерадикализatsii осужденных за преступления террористического характера в исправительных учреждениях зарубежных стран //Пенитенциарная безопасность: natsiональные традиции и зарубежный опыт. – 2019. – С. 209-211.

11. Qo‘ysinova, Fazilat Oripovna SIYOSIY INTEGRATSIYANI SHAKLLANTIRISHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI // ORIENSS. 2021. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/siyosiy-integratsiyani-shakllantirishda-siyosiy-institutlarning-roli (дата обращения: 18.06.2023).

12. Насимбек М., Койсинова Ф. РОЛЬ ВОЕННОЙ СТРАТЕГИИ АМИРА ТЕМУРА В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ // Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – No 4. – С. 1624-1629.

13. Oripovna Q.F. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida xalqaro tashkilotlarning roli: //Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 12. – С. 42-48.

Qo‘ysinova F.O. Ekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar: O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi

Maqolada ekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Xususan, islom olami diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga duch kelganligi, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida musulmon davlatlarida radikal g‘oyalarning tarqatilish jarayoni, diniy ekstremizm va terrorizmga oid harakatlar va mamlakatlar hukumatlari tomonidan ushbu muammoni bartaraf etish choralarining amalga oshirilishi o‘rganilgan. Radikal diniy guruhlar hamda diniy ekstremistik kuchlar faoliyati va tajovuzi ko‘lami nafaqat milliy va mintaqa xavfsizligiga, balki global miqyosda ham tinchlik hamda barqarorlikka tahdidi yoritilgan. Diniy asoslar sababli buzg‘unchi mafkuralar ta’siriga tushib qolgan shaxslarni ijtimoiy va diniy reabilitatsiya qilishning amaliyoti o‘rganilgan. Diniy ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurash, ya’ni radikal diniy ekstremistik guruhlarga qarshi kurashda xorij tajribasini o‘rganish, ibratli jihatlarini o‘zlashtirish hamda hayotga tatbiq etish mavjud davlatlarning barchasi uchun bir xilda zarur ekanligi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: diniy ekstremizm, terrorizm, radikallashuv, deradikalizatsiya, diniy reabilitatsiya, islomiy tarbiya, destruktiv g'oyalar.

Куйсинова Ф.О. Передовые практики по предупреждению и борьбе с экстремизмом и радикализмом: опыт Узбекистана и зарубежных стран

В статье анализировался опыт Узбекистана и зарубежных стран по предупреждению и борьбе с экстремизмом и радикализмом. В частности, тот факт, что исламский мир столкнулся с проблемой религиозного экстремизма и терроризма, процесс распространения радикальных идей в мусульманских странах в конце XX – начале XXI века, действия, связанные с религиозной изучены экстремизм и терроризм, имевшие место в регионах, и реализatsiя мер по устранению этой проблемы органами власти. Выделены масштабы деятельности и агрессии радикальных религиозных групп и религиозно-экстремистских сил как угроза не только национальной и региональной безопасности, но и глобальному миру и стабильности. Изучена практика социальной и религиозной реабилитации лиц, пострадавших от деструктивных идеологий по религиозному признаку. Обосновано, что в борьбе с религиозным экстремизмом, радикализмом и терроризмом, то есть в борьбе с радикальными религиозными экстремистскими группировками, всем существующим странам в равной степени необходимо изучать зарубежный опыт, усваивать его уроки и внедрять их.

Ключевые слова: религиозный экстремизм, терроризм, радикализация, дерадикализация, религиозная реабилитация, исламское образование, деструктивные идеи.

Kuysinova F.O. Advanced practices on preventing and combating extremism and radicalism: experiences of Uzbekistan and foreign countries

The article analyzes the experience of Uzbekistan and foreign countries in preventing and fighting against extremism and radicalism. In particular, the fact that the Islamic world was the first to face the problem of religious extremism and terrorism, the process of spreading radical ideas in Muslim countries at the end of the 20th century and the beginning of the 21st century, actions related to religious extremism and terrorism that occurred in the regions, and the implementation of measures to eliminate this problem by governments were studied. The scale of activity and aggression of radical religious groups and religious extremist forces is highlighted as a threat not only to national and regional security, but also to global peace and stability. The practice of social and religious rehabilitation of persons affected by destructive ideologies due to religious grounds has been studied. It is justified that the fight against religious extremism, radicalism and terrorism, that is, in the fight against radical religious extremist groups, it is equally necessary for all existing countries to study foreign experience, learn their lessons and implement them.

Key words: religious extremism, terrorism, radicalization, deradicalization, religious rehabilitation, Islamic education, destructive ideas.

Tolipov Abdug'affor Abdunabi o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig'i,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING O'RNI

Huquqiy demokratik davlat barpo etish, buyuk maqsad hamda ezgu niyatlarimizga erishish, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi va taqdiri har tomonlama yetuk malakali, madaniyatli, ma'naviy barkamol kadrlar faolligiga bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim. Axir xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning tarixi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, yetakchilik ahamiyatiga ega. Davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiyani huquqiy tartibga solish borasida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir paytda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish bevosita yosh avlodning ta'lim darajasi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga bog'liq. Bu borada o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining rolini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan berib borilishi lozim. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalardayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'qish davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur [1.]. Bu boradagi ishlar tizimli va bosqichma-bosqich ravishda, 1997-yil 25-iyunda qabul qilingan "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmon asosida amalga oshirilmoqda. Yurtimiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inlarida ham huquqiy savodxonlikka katta e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatimizda huquqbuzarlik holatlari uchrab turishi, o'g'irlik, bezorilik, giyohvandlik kabi jinoyatlar sodir qilinayotgani, ayniqsa, ba'zi yoshlarning turli diniy ekstremistik oqimlar girdobiga kirib qolayotganligi ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyat yetishmasligi, huquqiy ma'rifat ishlarida jiddiy kamchiliklar borligidan darak beradi. Ayrim yoshlar atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga befarq qaraydi. Axir yuksak huquqiy ong, huquqiy madaniyat har kimning faqat o'zining qonun-qoidaga rioya qilishini emas, balki boshqalardan ham shuni talab qilishni, ularga bu borada ta'sir ko'rsatishni anglatadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ko'plab jamoat birlashmalari va jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Binobarin, mazkur tashkilotlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida tuzilgan. Shuningdek, jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urush, zo'ravonlik va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan, sinfiy, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan

taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi [2.].

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq sodir etilgan huquqbuzarliklar yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Binobarin, ayrim mintaqalardagi ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, turli to‘garaklarga jalb etish, mavjud sport maydonchalari va kutubxonalardan to‘g‘ri hamda unumli foydalanishga yetarli e’tibor berilmaganligi sababli o‘quvchilar tomonidan og‘ir turdagi jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan. Jinoyatlarning aksariyati, darsdan so‘ng bo‘sh yurgan, ota-onalarining nazoratisiz qolgan, sport to‘garaklariga jalb etilmagan o‘smirlar tomonidan sodir etilganligi ma’lum bo‘ldi [3].

Yoshlarni turli tahdidlardan, jinoyatlardan himoyalash hamda fikriy qaramlikdan asrash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirib borish kerak. Jumladan, yoshlarda insonning tug‘ma bo‘lgan umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirib borish kerak; farzandlarimizni yomonliklardan, ayniqsa “kompyuter o‘yinlaridan” yiroqlashtirish uchun har bir ota-ona tomonidan nazoratni kuchaytirish; yoshlarga zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatidan unumli va samarali foydalanishlari muhim ahamiyatga egaligini tushuntirib borish kerak. Ushbu vazifalarning bajarilishi zamirida talaba yoshlarimizni har tomonlama kamolga yetkazish, ularning mamlakatimiz taraqqiyotini, ayniqsa, kelajagini belgilovchi kuch ekanligini ta’minlash ustuvor maqsadlardan biridir.

Huquqiy ta’lim-tarbiya shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan holdagi ta’sir ko‘rsatilishidir. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yaqin o‘tmishda ham huquqiy tarbiyaga e’tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma’naviy-estetik tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, huquqiy tarbiya xususida eslatilmas edi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo‘nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo‘nalishining ajratib qo‘yilmasligi o‘sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, huquqiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning hamma jihatlarini qamrab olishi, uzluksiz ta’lim tizimi barcha bosqichlarining o‘qitish jarayonida, darsdan tashqari ishlarda leksiyalar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, og‘zaki jurnallar, yosh huquqshunoslar klublari, maktablari va boshqalarni tashkil etish yo‘li bilan olib borilishi lozim.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini baholaganda yosh inson huquq ko‘rsatmalariga rioya etishini aniqlash ham muhim. Masalan, yoshlar jazodan qo‘rqib huquqiy me’yorlar talablarini buzmayotgan bo‘lishsa, ularda huquqiy madaniyat mavjud deb aytish o‘rinli bo‘lmasa kerak. Shuning uchun ham huquqni bilish va tushunishning o‘zi yetarli emas, uni hurmat qilish, barcha huquqiy talablarga rioya etish majburiy ekanligini e’tirof etish zarur. Yoshlarning huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish bilan bir qatorda qonunga rioya qilish odatini ham taqozo etadi. Bu, xususan, madaniyatga, turmushga singib ketgan, odatga aylangan narsanigina erishilgan deb hisoblash mumkin, degan qoidadan kelib chiqadi. Vazifa – o‘zimizda xulq-atvor masalalariga to‘g‘ri, oqilona munosabatni tarbiyalabgina qolmasdan, yana to‘g‘ri odatlarni ham tarbiyalashimizdan iborat, ya’ni bu odatlarga ko‘ra biz yaxshi o‘ylab ko‘rganimiz uchun emas, balki boshqacha qila olmaydigan bo‘lganimiz, odatlanib qolganimiz uchun to‘g‘ri yo‘l tutaylik. Bu odatlarni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ishdir. Yoshlarda muntazam o‘z tashqi qiyofasini kuzatib borish yoki gazeta o‘qish zaruriyatini tarbiyalagan kabi huquqqa rioya qilish odatini ham singdirib borish lozim.

Biror-bir mamlakat yoki jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning qanday o‘rin olganligini bilish uchun kishilardagi huquqiy madaniyatning darajasini bilish

kifoya. Demak, huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil ekan, uni shakllantirish va rivojlantirish har bir davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat tug‘ma xususiyat emas. U yillar davomida tarbiya va bilim natijasida shakllanadi. Uni shakllantirishning bir qancha vositalari mavjud. Huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot va axloqiy tarbiya shular jumlasidandir. Bular orasida axloqiy tarbiya alohida ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy madaniyatni tushunishning ikki asosiy turi mavjud: 1) huquqiy madaniyat – huquqiy hodisalar majmui. Bu holda har qanday jamiyatning huquqiy madaniyati qonun ijodkorligi, yuridik tashkilotlar, yuridik amaliyot (rasmiy davlat organlari faoliyati, fuqarolarning huquqiy xulq-atvori) va huquqiy ongni o‘z ichiga oladi [4. 324.]; 2) huquqiy madaniyat – individual, guruhga oid yoki ijtimoiy huquqiy ong rivojining muayyan darajasi [5. 492.].

Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma’naviy kamolotining, davlatchilik ravnaqi binosi rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu ijtimoiy hayot jarayonlariga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolar barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko‘maklashuvchi hamda mamlakat yaxlitligi va barqarorligini ta’minlovchi, mustahkamlovchi qadriyatdir. Ijtimoiy ma’noda, «huquqiy madaniyat» kategoriyasi ikki darajada talqin etilishi mumkin. YA’ni, birinchisi, butun jamiyatning huquqiy madaniyati, ikkinchisi, alohida shaxsning huquqiy madaniyati darajasidir. «Mustaqillik tufayli huquqiy ta’lim-tarbiya, huquqiy madaniyat va huquqiy ongga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi» [6. 219.]. Shu boisdan ham huquqshunos olim Z.Islomov: «huquq madaniyati» keng ko‘lamli, ma’nodor tushunchadir. Uning tahlili maxsus tadqiqot mavzusini taqozo qilishi mumkin va bu tabiiydir [7. 78.], deb yozadi. «Huquqiy ong va madaniyat» tushunchasi huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki huquqiy madaniyatga berilgan har qanday ta’rif ham tarixiy jihatdan uning mazmunini to‘la-to‘kis ochib bermaydi. Bu tushunchaga davr va zamon nuqtai nazaridan uning rivojlanish shakllariga qarab ta’rif berish kerak bo‘ladi. Huquqiy ong kelib chiqishi jihatidan predmetning subyektiv mazmunini takrorlaydi, huquqiy ongni ijtimoiy ong shakllaridan biri, deb tushunishni istisno etmaydigina emas, hatto, taqozo etadi ham [8. 181-182.].

Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishda huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqidagi farmon muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u dastur qabul qilinishiga zamin yaratdi. So‘nggi o‘n yillikni jamiyat tozalanishi, yangicha munosabatlarning vujudga kelishi, huquqiy yuksalish davri deyish mumkin. Xalqning huquqiy bilim va huquqiy madaniyatini yuksaltirmasdan turib, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin emas. Shu sababdan, odamlarimiz ongidagi eskicha qarashlarni o‘zgartirib, ularda yangicha huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi davr talabiga aylandi. Bunday sharoitda yoshlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir. «Bu o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashdir. Toki, jamiyatning har qaysi a’zosi o‘z huquqi, o‘z burchi va mas’uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlarimiz, say-harakatlarimiz besamar ketaveradi» [9. 59.].

Mamlakatimizda amalga oshirila-yotgan ta’lim siyosati yoshlarni ma’nan yuksak, axloqiy pok, Vataniga, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashga undar ekan, unda huquqiy savodxonlik muhim o‘rin egallaydi. Negaki, kelajakni yoshlar

belgilaydi. Ularning siyosiy g‘oya va qarashlari huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat zaminiga qurilishi ijtimoiy ehtiyojdir. “Adolatparvarlik”, “rostgo‘ylik”, “xalqparvarlik”, “insonparvarlik” tushunchalari siyosiy, axloqiy qarashlarni yoritishga xizmat qiladi. Bularni anglashda huquqiy madaniyatni qay darajada egallaganlik muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy ong – jamiyat ma’naviy hayoti yangilanishining murakkab va ko‘p qirrali hodisasi. Sotsiologiyada huquqiy ong ijtimoiy ongning shakllaridan biri sifatida qaraladi. Sobiq ittifoq davrida huquqiy ongda iqtisodiy bazis aks etishining o‘ziga xosligi va uning belgilovchi ahamiyatga ega ekanligi ustuvor bo‘lgan. Unda, bir tomondan, «Ijtimoiy turmush ijtimoiy ongni belgilaydi», «ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni» yoki «muhit ongni belgilaydi», degan aqida ustuvor bo‘lgan; ikkinchidan, moddiy ishlab chiqarish usuli, iqtisod jamiyat hayoti asosini belgilovchi omil sifatida talqin etiladi; uchinchidan, iqtisod jamiyat madaniy hayoti, ong va tafakkur masalasiga sinfiy va partiyaviy yondashuv nazariy metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Huquqiy ong: a) sog‘lom; b) nosog‘lom; v) demokratik va nodemokratik; g) xolis va noxolis; d) huquqiy ong o‘zining mohiyatiga mos va unga to‘liq mos kelmasligi holatlarida bo‘lishi mumkin. Bizningcha, bu inson huquqiy ongini, uning ma’rifiy madaniyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi muhim jihatdir. Ma’naviyati yuksak bo‘lgan insonning huquqiy ongi sog‘lom huquqiy ong bo‘lishi mumkin. Jamiyat ma’naviy hayotini yangilash, avvalo, madaniyatni tiklash orqali yuksaltira borishga insonlarning milliy ma’naviy kamoloti va huquqiy bilimlarini tobora boyitib borish bilan bog‘liq. Fuqarolar, jumladan, yoshlar yuksak huquqiy onglilikka erishmog‘i huquqqa hurmat va unga amal qilish qadriyatga aylanishi lozim. Barkamol yuksak huquqiy ongga ega insonning shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Jamiyatning yangilanishida oddiy normalarning qaror topishi huquq-tartibot, intizom, barqarorlik, fuqarolar tomonidan rioya qilinishi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning zaruriy shartidir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat milliy mafkura shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. Agar fuqarolarda huquqiy qarashlar ustun bo‘lsa, fuqarolik jamiyati barpo etish, demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash tez kechadi. Demak, mustaqillik bizga katta imkoniyat – keng fikrlash, erkin yashash va davlat boshqaruvida erkin qatnashish huquqini berdi. Bunday huquqlarni ro‘yobga chiqarishda esa har bir fuqaro huquqiy madaniyatining yuksak bo‘lishi olib borilayotgan ishlarimizni yanada samarali qilishi mumkin. Shuni nazarda tutib, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» ishlab chiqildi. Unda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ta’lim va tarbiyani takomillashtirish, aholi huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolar ijtimoiy-huquqiy faolligini ta’minlash asosiy vazifalar etib belgilangan. Modomiki shunday ekan, fuqarolar huquqiy ongini shakllantirishda turli vosita va usullar, targ‘ibot va tashviqot ishlaridan keng foydalanish, bu sohadagi harakat va tashabbuslarni har tomonlama rag‘batlantirish, qonunlarning ro‘yobga chiqarilishida fuqarolar faolligini oshirish muhim tamoyil sifatida belgilangan. Milliy dastur nafaqat huquq-targ‘ibot organlari, balki butun davlat va jamoat tuzilmalari, fuqarolarning hayotiy, kundalik dasturi, yo‘l ko‘rsatuvchi muhim hujjat hisoblanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyatni keng targ‘ib qilish dasturdagi barcha masalalar hal etilishiga bevosita bog‘liq.

Shuni unutmaslik kerakki, huquqiy madaniyatimizni yuksaltirishda huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani uyg‘unlashtirgan holda olib borish zarur. Shaxsning huquqiy madaniyatini tavsiflashda quyidagi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratilishi lozim:

- huquqiy me’yorlar mazmunini to‘la tushunib yetish;
- Konstitutsiya va qonunlarga chuqur hurmat ruhi bilan qarash;
- huquqiy faollikni oshira borish;
- qonunlardagi o‘zgarishlarni huquq va erkinliklarni muhofaza qiluvchi vosita deb bilish;

- qonunda aks etgan normalarga ichki e'tiqod, ixtiyoriy bo'ysunish tarzida rioya qilishga odatlanish.

Shuni qayd etish joizki, inson huquqlari nafaqat Konstitutsiyada, balki asosida qabul qilingan 100 dan ortiq sohalar bo'yicha ishlab chiqilgan qonunlarda ham o'z aksini topgan. Bu qonunlarda e'tirof etilgan inson huquqlarining barcha ko'rinishlari oliy qadriyat sifatida e'zozlanib mustahkamlanadi. Haqiqatan ham huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga jamiyatda fuqarolar o'rtasida huquqiy bilimlarni targ'ib qilish, keng axborot maydonini shakllantirish orqali erishish asosiy yo'llardan biridir. Huquqiy bilimlarni targ'ib qilish nafaqat huquqshunos mutaxassislar, balki ommaviy axborot vositalarining ham vazifasidir. Bu borada Adliya vazirligi yosh mutaxassislarining O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi «Yoshlar» telekanali orqali chiqishlari, viloyatlar bo'yicha davra suhbatlari va ijodiy treninglar o'tkazayotgani e'tiborga loyiq.

Fuqarolik jamiyati barpo qilishda huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda takomillashtirishni hozirgi talab darajasida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Albatta, yoshlar faoliyatida ushbu masala o'zining dolzarb jihatlari bilan ajralib turadi, samarali tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yishimiz lozimligini yana bir bor qayd qilamiz.

Xullas, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim beqiyos o'rin tutadi. Bugun ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan dars soatlari, o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan. Mazkur say-harakatlarni amalga oshirish, huquqiy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlash, qolaversa, bu borada faol yoshlarni qo'llab-quvvatlash kelajakda natijalar keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Миллий дастури. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил. 29 августдаги қарорига биноан тасдиқланган // "Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси"нинг веб-сайти-www.lex.uz.

2. "Ўзбекистон Республикаси жамоат бирлашмалари тўғрисида"ги Қонун. 03.12.2004 й. 714-II-сон Қонуни таҳриридаги қисм.

3. Қаранг: "Вояга етмаган ёшлар ва ёшлар ўртасида жиноятчиликнинг 2005 йилдаги аҳволи тўғисида"ги Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан 2006 йил 15 январда № 26/73-сонли "Камолот" ЁИҲга хат орқали тақдим этган Ахбороти.

4. Лазарев В., Липень С. Теория государства и права. – М.: Спартак, 2000. – С.324.

5. Венгеров А.Б. Теория государства и права. – М.: Юриспруденция, 1999. – С.492.

6. Одилқориев Ҳ. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.219.

7. Исломов З. Ҳокимият ва ҳуқуқ маданияти // Ҳаёт ва қонун. – 1998. – №7. – Б.78.

8. Тожихонов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. Т.2. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – Б.181-182.

9. Каримов И.А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.59.

Tolipov A.A. Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni

Mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni haqida so'z yuritiladi. yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim beqiyos o'rin tutadi. Shuningdek, ta'lim tizimining barcha

bosqichlarida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda dars soatlari va o‘quv kurslarini takomillashtirish masalalari izohlab berilgan. Xususan, fuqarolarning huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tuzilgan mamlakatimizdagi ko‘plab jamoat birlashmalari va jamoat tashkilotlari faoliyati qiyosiy sotsiologik tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, jinoyatchilik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqbuzarlik, xulq-atvor, jamoat tashkilotlari, huquqiy norma, nazorat.

Толипов А.А. Роль правосознания и правовой культуры в профилактике преступности среди молодежи

В данной статье говорится о роли правосознания и правовой культуры в профилактике преступности среди молодежи нашей страны. Образование играет несравненную роль в повышении правовой культуры молодежи. Также разъясняются вопросы совершенствования часов и учебных курсов по повышению правовой грамотности молодежи на всех уровнях образовательной системы. В частности, сравнительно-социологически проанализирована деятельность многих общественных объединений и общественных организаций в нашей стране, которые были созданы в целях реализации прав и свобод граждан, их законных интересов в политической, экономической, социальной и других сферах жизни.

Ключевые слова: молодежь, преступность, правосознание, правовая культура, преступность, поведение, общественные организации, правовые нормы, контроль.

Tolipov A.A. The role of legal awareness and legal culture in the prevention of crime among young people

This article talks about the role of legal awareness and legal culture in preventing crime among young people in our country. education plays an incomparable role in raising the legal culture of young people. Also, the issues of improving the hours and training courses in improving the legal literacy of young people at all levels of the educational system are explained. In particular, the activities of many public associations and public organizations in our country, which were formed in order to realize the rights and freedoms of citizens, their legal interests in political, economic, social and other spheres of life, were analyzed comparatively sociologically.

Key words: youth, crime, legal consciousness, legal culture, crime, behavior, public organizations, legal norms, control.

Yusupov Muxtar Bekchanovich,
Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha Milliy gvardiya boshqarmasi boshlig'i

OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZILISHIDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASHGA JALB ETILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bugungi globallashgan, integrallashayotgan zamonaviy davrda yer yuzi va mintaqamizning turli nuqtalarida qishloq, ovul, shahar va megapolislarda odamlar ommaviy qabila, urug', jamoa hamda millat sifatida, jamoaviy tarzda yashaydilar.

Insonlarning jamoa bo'lib yashashi va jamoaviy hatti-harakatlarga qo'shilishi yoki uni ijro etishi, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlaridan biri sanalib, u doimiy ravishda qondirilishiga muhtojdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida **ommaviy tadbirlar alohida, birinchi va ikkinchi toifaga [1] ajratilgan. Mazkur tadbirlar davomida** jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash uchun **Milliy gvardiya** javobgar ekanligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining 2-bob, 9-bandida, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishi hamda o'ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlar, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etishi kabi vazifalar [2] belgilab berilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu vazifa doirasida o'tkazilib kelinayotgan ommaviy tadbirlar davomida jamoat tartibini saqlash hamda aholi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali natijalarga erishilmoqda.

Rus olimlari A.I.Pavlovskiy va I.I.Kakadiylarning ommaviy tadbirlarning quyidagi ko'rinishlarini keltirib o'tishgan: [3]

- paradlar;
- yurishlar;
- namoyishlar;
- mitinglar;
- yulduzlarning konsertlari;
- ko'rgazmalar, konferensiyalar;
- siyosiy nutqlar;
- xalq bayramlari va tantanalari;
- sport musobaqalari (xalqaro, mamlakat, viloyat, shahar, tuman);
- madaniy va sport tadbirlari (festivallar, konsertlar, o'yinlar, yarmarkalar, turli xil ko'rsatish); va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlari ommaviy tadbirlarni tashkil etish va xavfsizlikni ta'minlashning ajralmas qismi hamda ishtirokchilari hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlar - bu, katta miqdordagi odamlarning yig'indisi sifatida qaralib, turli-tuman ma'naviy, siyosiy, umumiy yoki boshqa qarashlar (fikrlar) va maqsadlar bilan birlashtirilgan odamlar to'dasidir.

Ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlashning muvaffaqiyatli jihatlari quyidagilarga bog'liq:

- puxta va jiddiy tayyorgarlik;
- kuch va vositalarning birligi;
- belgilangan vazifalarni bajarishda izchillik, aniqlik va boshqalar. [4]

Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning psixologik holati va tayyorgarligi, tadbirlarning xavfsiz o'tishi, aholi va fuqarolar xavfsizligini ishonchli ta'minlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat shundaki, ommaviy tadbirlar jarayonida ishtirok etayotgan har bir individ (shaxs) emotsional labilizatsiya (hissiyotlarning junbushga kelishi, kayfiyatning ko'tarilib tushishi, to'lqinlanish) holatida bo'lishi hisobga olinsa, har bir ishtirokchida turli ko'rinishdagi ruhiy qo'zg'aluvchanlik,

hissiyotga berilish, quvonish, isteriya, vahima kabi holatlar nizoli vaziyatlar va xavf-xatar omilining motivatori (turtkisi, uchquni) bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ommaviy tadbirlarning o‘tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilar tomonidan tadbir ishtirokchilarining nafaqat ruhiy va hissiy holati, balki ularning spirtli ichimliklar ist’emoli, zaharli va giyohvand moddalar ta‘sirida bo‘lganligi, shubhali yoxud portlovchi moddalar, sovuq va o‘q otar qurollar olib yurgan shaxslarga diqqat va e’tiborli bo‘lishlari lozim.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazilishiga jalb etilgan harbiy xizmatchilar ma’lum darajadagi ko‘nikmaga hamda psixologik xususiyatlar yetarli darajada shakllangan bo‘lishi, jamoat tartibi saqlanishi va fuqarolar xavfsizligi ta’minlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Avvalambor harbiy xizmatchining shaxsiyati tarkibida tabiiy, biologik, organik jihatlar bilan birga uning ijtimoiy (statusi) mavqei, unvoni, libosidan kelib chiqib, kasbiy xususiyatlarning shakllanganligi asnosida o‘z hatti-harakatlarini amalga oshiradi.[5]

Harbiy xizmatchilarni biologik tur sifatida ma’lum bir anglangan va anglanilmagan ehtiyojlarga ega ekanligi, uning individual-psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini va hatti-harakatlarini anglay olish darajasi kabi omillardan kelib chiqib, o‘ziga qo‘yilgan vazifani to‘g‘ri va to‘laqonli bajarishlaridan ko‘ra omma ta’siriga tushib qolish, berilib ketish ehtimolini ham yoddan chiqarmaslik zarur.

Har bir harbiy xizmatchi, shaxs sifatida muayyan bir asab tizimining xususiyatlari (kuchli, kuchsiz, muvozanatlashgan tiplarga)ga, layoqat, qobiliyat, temperamentga, individual-psixologik hamda kasbga xos bo‘lgan xususiyatlarga, malaka va tajribaga ega hisoblanadi. [6]

Harbiy xizmatchining shaxsiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lishi uning ijtimoiy faolligining sermahsulligiga hamda kasbiy muhim xususiyatlarining qaror topishiga xizmat qiladi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazilishida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan shaxsiy tarkibga yetarlicha shakllantirilishi lozim bo‘lgan IQ, EQ va WQ xususiyatlarga e’tiborimizni qaratamiz.

1. Aqliy intellekt (IQ) - bu odamning aql-zakovat darajasini miqdori (aqliy rivojlanish koeffitsiyenti) hisoblanib, o‘rtacha odamning aql darajasiga nisbatan baholanadigan aqliy yoshi shaxsning haqiqiy xronologik yoshidir.[7]

2. Hissiy intellekt (EQ) - bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish, tushunish va bu ko‘nikmalarni boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarda qo‘llash qobiliyati hisoblanadi.[8]

3. Boshqaruv, liderlik (WQ)-darajasi bo‘lib, bu shaxsning ma’lum bir g‘oya va maqsad yo‘lida jamoani birlashtirish orqali ular bilan birgalikda muvaffaqiyatga olib chiqish qobiliyatining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi.

Jamoat tartibini saqlashga mas’ul bo‘lgan harbiy xizmatchilarning IQ, EQ va WQ xususiyatlarining rivojlanganlik darajasiga e’tibor qaratilishi, fuqarolar bilan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli ko‘rinishdagi nizoli va ziddiyatli holatlarni oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazilishida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilar bir qancha parametr(jihat)larning yetarli darajada shakllanganligi, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlanishida muhim rol o‘ynaydigan parametrlar quyidagilardan iborat;

- jismoniy yetuklik;
- ijtimoiy-psixologik;
- ma’naviy-axloqiy;
- siyosiy va boshqalar.

Shaxsiy tarkibni ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga jalb qilishda ularning quyidagi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jihat (parametr) xususiyatlariga e’tiborimizni qaratib o‘tamiz.

- O‘ng va chap miya yarim sharlarning muvozanatlashganligi;

- Senso-motor xususiyat (ko‘nikma va xulq-atvorga aylangan sezgirlik, kichik detallar hid, ta’m, tovushlarni ilg‘ay olish ko‘nikmasining shakllanganligi);

- Temperament jihatidan sangvinik va flegmatik;

- Sotsializatsiya ehtiyoji;

- Xarakter xususiyatlari-faollik, tashabbuskorlik, muloqotga kirishuvchanlik, izchillik, ziyraklik, stressga chidamlilik va boshqalar.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazilishida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar muloqot kompetensiyasini rivojlantirish hisoblanadi.

So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, odamlarning 58% ma’lumotni noverbal kanallar orqali, 35% ma’lumotni audial kanallar orqali, 7% suhbatdoshning nutqidan, verbal kanal orqali qabul qilinishi isbotlangan.

Demak odamlarga ta’sir etishning samarali vositasi noverbal kanallar orqali ta’sir etish hisoblanib, muloqotning noverbal kanallariga quyidagilarni kiritamiz:

- Vizual-(kurish vositasi yordamida), (yuz mimikasi, kuz, nigoh harakatlari, tabassum, umumiy turish, qo‘l va panja harakatlari, yurish, ishoralar, teri reaksiyalari va boshqa ko‘rinishlardir.)

- Audial-(eshitish vositasi yerdamida), (paralingvistik xususiyatlari-ovozni balandpastligi, uning tebranishi va ohangi, jarangi, nutqni tezligi va so‘zlarga berilgan urg‘ular va hokazo.

- Ekstralingvistik xususiyatlari-yig‘lashi, kulish uslubi, gapda paydo bulayotgan to‘htamlar (e-e-e, xm-m-m, haligi-chi);

- Taktil-(sezish vositasi yordamida), (teginish, qo‘l siqish va surashish, yelkasiga qoqib qo‘yish, o‘pishish va boshq.);

- Olfaktor-(xid-sezish vositasi yordamida), (yoqimli-yoqimsiz hidlar, og’izdan-badandan kelayotgan hidlar, tabiiy va sun’iy hidlar, atir-upa hidlari).[9]

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazilishida jamoat tartibini ta’minlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilar noverbal kanallar orqali fuqarolarga, tartib-intizom, jamoat joyida yurish-turish qoidalariga amal qilinishlari bo‘yicha ta’sir o‘tkazilishlari samarali hisoblan fuqarolar harbiy xizamatchi tomonidan jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ong ostiga samarali ta’sir o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantirilishi eng asosiy masalalardan biri sanaladi.



Ammo shu narsani e’tibordan qochirmaslik kerakki harbiy xizmatchilarning o‘zlari fuqarolarning noverbal ta’sir doirasiga tushib qolishlari ham jamoat tartibini buzilishiga fuqarolar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelishi mumkin. Masalan: Chiroyli kiyingan ayol va qizlar, yordam so‘rab yig‘layotgan ayol, bola yoki gadoy, lo‘li, spirtli ichimlikka mukkasidan ketgan (alkogollik) odam boshqalar.

Shu bilan birga fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida ko‘z qarashi va nigoh yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlanishi fuqarolarning harbiy xizmatchi tomonidan bildirilgan fikrlarni to‘g‘ri va tanqidsiz qabul qilinishiga yordam beradi. Bunda harbiy

xizmatchi fuqarolar bilan muloqotga kirishish jarayonida nigohi va ko‘z qarashlarini, hurmatga asoslangan muloqot uchburchagi (ikki qoshning pastki qismi va pastki labning yuqori qismi)ga yo‘naltirgan holda rasmiy ohangda xizmat vazifasi doirasidagi fikrlarni bildirishi fuqaro tomonidan tanqidsiz va ijobiy qabul qilinishiga hamda o‘z hatti-harakatlarini ongli nazorat qilishiga olib keladi. Peshonaga yo‘naltirilgan nigohni rasmiy nigoh deb nomlashadi. Bu yo‘nalishda qat’iy gaplar buyruqlar, ko‘rsatmalar berilishi mumkin.[10]



Shuningdek, atrofdagi shaxs (fuqaro) larga ta’sir o‘tkazish, bog‘lanish, masofa orqali shakllanadi, aynan masofa orqali shaxsni psixo-emotsional, ijtimoiy va fiziologik holatiga ta’sir etish mumkin.

Jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilar ommaviy tadbirlar jarayonida ko‘proq fuqarolar bilan ijtimoiy va ommaviy masofada muloqotga kirishish asnosida faoliyat olib borishadi. Harbiy xizmatchilar fuqarolar bilan to‘g‘ri kerakli, masofani tanlash asosida ular bilan muloqotga kirishish agressiv, qo‘pol fuqarolarni ham jamoat tartibini saqlashga moyilligini oshiradi.

Shuningdek, ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, sport musobaqalari davomida harbiy xizmatchilarning gap-so‘zlari va tartibga rioya etishlari bo‘yicha topshirishlari fuqarolar tomonidan yetarli darajada anglanilmaydi. Ushbu turdagi ommaviy tadbirlarda ko‘proq ommaga noverbal kanallar orqali ta’sir o‘tkazish orqali qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish mumkin. Ya’ni ovoz bilan aytmoqchi bo‘lgan fikr, axborot, talab yoki buyruqlarni tana harakatlari, mimika va pantomimika (yuz mimikasi, qo‘llar, tana hatti-harakatlari) harakatlari orqali yetkazilishi ijobiy natija beradi. Masalan: Stadionda uzoq masofada tartib buzishga urinayotgan muxlislarga o‘z o‘rindig‘ida o‘tirishi lozimligi ommaviy masofadan qo‘l va tana harakatlari orqali ko‘rsatilishi muxlis tomonidan ushbu harakatlar etarli darajada anglanishiga va topshiriq bajarilishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni taklif etish mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hamda Jamoat xavfsizligi universitetiga nomzod sifatida ko‘rilayotgan fuqarolarning nafaqat shaxsiy balki kasbiy sifatlari ham o‘rganilishi;
- Milliy gvardiya markaziy devoni Jamoat tartibini saqlashga mas’ul bo‘lgan ofitserlar tomonidan harbiy xizmatchilarning profayling va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv va metodik dastur ishlab chiqishlari hamda ilmiy-amaliy semenarlar o‘tkazilishi;
- Bugungi kunda MDH va rivojlangan Mamlakatlarda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha tajribalarni o‘rganib, shaxsiy tarkibga yetkazib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktabrdagi 530-sonli qaroriga asosan to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan-Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 3-band va uning beshinchi, oltinchi xatboshilari. 07.10.2023-y., 09/23/530/0757-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi KONSEPSIYASI

3. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИУа № 5(29). Том 2. 2017. 110

4. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИУа № 5(29). Том 2. 2017. 111

5. Гацко М.Ф. Социальный статус военнослужащих и проблемы его правового регулирования в Российской Федерации. / Материалы международной научной конференции «Социальная роль права: история и перспективы», 27–29 сентябя 2002 г. – М.: Издательство МГСУ, 2002. – С. 136-142.

6. Калужный А.С. Психология личности военнослужащего: Учебное пос. [Электронный ресурс] – Н.Новгород: НГТУ, 2004.-39 с.-Режим доступа: http://www.nntu.sci-nnov.ru/RUS/ FVO/disciplines/ studyvospitat.php

7. https://ru.wikipedia.org/wiki /Коэффициент_интеллекта.

8. Smith, M.K. (2002) «Howard Gardner and multiple intelligences», *The Encyclopedia of Informal Education*, downloaded from http://www.infed.org/thinkers/gardner.htm on October 31, 2005

9. U.A.Rahimov "Muloqotning o'ziga xos xuisusiyatlari" nomli maqolasi. Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik taminlash" kafedrasi Konferinsiya materiallari to'plami. Toshkent 2021y.

10. U.A.Rahimov "Muloqotning o'ziga xos xuisusiyatlari" Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik taminlash" kafedrasi Konferensiya materiallari to'plami. Toshkent 2021y.

Yusupov M.B. Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari

Maqolada Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari, ommaviy tadbirlar tushunchasi, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va psixologik xususiyatlarning shakllantirilishi jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy tadbirlar, emotsional labilizatsiya, isteriya, vahima konflikt, motivator, status, IQ, EQ va WQ, senso-motor, temperament, vizual, audial, ekstralingvistik, taktil, olfaktor, verbal va noverbal.

Юсупов М.Б. Индивидуально-психологические особенности военнослужащих, участвующих в обеспечении общественного порядка во время массовых мероприятий

В статье поясняется, что в обеспечении общественного порядка важное значение имеют индивидуально-психологические особенности военнослужащих, участвующих в охране общественного порядка, понятие о проведении общественных мероприятий, морально-духовное состояние военнослужащих, формирование психологических особенностей.

Ключевые слова: массовые мероприятия, эмоциональная лабилизация, истерия, панический конфликт, мотиватор, статус, IQ, EQ и WQ, сенсомоторный, темперамент, зрительный, аудиальный, тактильный, экстралингвистический, обонятельный, вербальный и невербальный.

Yusupov M.B. Individual-psychological characteristics of military personnel involved in maintaining public order during public events

In the article, it is explained that the individual psychological characteristics of military personnel involved in public order maintenance, the concept of public events, the moral and spiritual condition of military personnel, and the formation of psychological characteristics are important in maintaining public order.

Key words: mass events, emotional labilization, hysteria, panic conflict, motivator, status, IQ, EQ, and WQ, sensorimotor, temperament, visual, audial, extralinguistic, tactile, olfactory, verbal, and nonverbal.

Chinibayev Jamshid Ilyasovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARINI PROFILAKTIKA QILISHNING MUHIM OMILI (JISMONIY TARBIYA VA SPORT MISOLIDA)

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar va voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish borasida qonunchiligimizda bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Asosiy qonunimiz bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “Yoshlarga doir davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlar yoshlarning manfaatlarini himoya etuvchi normalarni o‘zida aks ettirgan. Voyaga yetmaganlarga oid qonunlar ijrosini davlat va jamoat tashkilotlarida muvofiqlashtirib borish ishlari davlatimizning diqqat markazida turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasi, ularning huquqbuzarliklari masalasini oldini olishni ta’kidlar ekan:*“Keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-kuy bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”*, deya qayd etib o‘tgani bejiz emas, albatta.

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida ta’lim muassasalari oila, mahalla, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, Adliya boshqarmalari hamda turli jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda, yurtimizda keyingi ikki yilda huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan keng ko‘lamli aniq maqsadga yo‘naltirilgan muhim choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, 2018 yilning o‘zida **1 ming 881** ga jinoyat ishi dalillar yetarli bo‘lmaganligi sababli tugatilgan bo‘lsa, sudlar tomonidan 590 nafar shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam **2016 yilda** – e’tibor bering – bor-yo‘g‘i 28 tani, **2017** yilda esa **263** tani tashkil etgan edi. Shuningdek, **5 ming 462** nafar shaxsga nisbatan tergovda asossiz qo‘yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi, **2 ming 449** nafar shaxs esa sud zalidan ozod qilindi. Sudlarda ishlarni yillar davomida qayta-qayta ko‘rish amaliyotiga butunlay chek qo‘yildi. Insonparvarlik tamoyili asosida mutlaqo yangi amaliyot joriy etilmoqda. Buning natijasida jinoyat yo‘liga adashib kirib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lgan **993** nafar fuqaro, jumladan, **456** nafar yigit-qiz hamda **113** nafar ayollar Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo‘mitalarining kafilligi bilan jazodan ozod qilindi. Shu bilan bir qatorda, jazoni o‘tayotgan **3 ming 333** nafar, jumladan, faoliyati man etilgan tashkilotlarga kirib qolgan **646** nafar mahkum afv etilib, oilasi bag‘riga qaytarilgan bo‘lsa, Xalqimiz uchun ulug‘ bayram – Konstitutsiya kuni munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan imzolangan maxsus farmonga ko‘ra, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan va ayni paytda ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tayotgan **136** nafar shaxs afv etilganligi bu borada mazkur sohada qilinayotgan ishlar o‘zining ijobiy samarasini berayotganligini ta’kidlash lozim. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida hududlarda jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish tizimini yaratish maqsadida haftaliklar tashkil etilmoqda. Jumladan, joriy yilning avgust-sentabr oylarida jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan, IIB profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar uchun Respublikamizning **12** ta hududida jismoniy tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish oromgohlari tashkil etilganini aytib o‘tish joiz. Mazkur oromgohlarda **2** ming **225** nafar

IIB profilaktik hisobida turuvchi voyaga yetmagan yoshlar jalb qilinib, ular bilan profilaktik suhbatlar, seminar–treninglar tashkil etilib ular orasidan xulqi ijobiy tomonga o'zgargan **732** nafar voyaga yetmaganlar profilaktik hisobdan chiqarilganligi bu borada olib borilgan ishlar o'zining ijobiy samarasini berayotganligini ta'kidlash lozim. O'tgan 2018 yilning 11 oyi sarhisob qilinganda amalga oshirilgan ishlar natijasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **455** taga (2017 yil 1228 ta, 2018 yil 773 ta) jinoyatlarda ishtirok etgan voyaga yetmaganlar soni **533** nafarga (1456/923) kamayganligi bu borada amalga oshirilgan ishlar o'zining ijobiy samarasini ko'rsatayotganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Shu o'rinda, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar atroflicha o'rganilganda, ularning ko'pchiligini ta'lim muassasalari ya'ni o'qishga o'z vaqtida bormagan, darsdan tashqari tadbirlarga jalb qilinmagan bekorchi yurgan yoshlar tashkil etadi. Bundan tashqari, ota-onasining qarovisiz qolgan, hayotga ongli qaray olmaydigan, sodir etayotgan qilmishining oxirini o'ylamaydigan, osonlikcha boylik orttirishni orzu qilgan xo-mhayolda yurgan yoshlar ekanligini namoyon bo'lmoqda.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajara borib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta'minlash maqsadida, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi; voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishiga, chekishiga yo'l qo'ymasligi, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning kelib chiqish omillarini tasniflaydigan bo'lsak, odatda ular ***ma'naviy-ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy*** masalalar bilan ajralib turadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining *ma'naviy-ijtimoiy omillari* qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- birinchi navbatda, bu oilaning zaiflashuvi va inqirozi bo'lib, unga quyidagilar kiradi: oila a'zolari orasida nizolarning ko'payganligi, ajrashishlar darajasining juda yuqoriligi, ota-onalarning birining yoki ikkalasining ham uzoq muddatga xorijga chiqib ketishi, ota-onalar madaniy-ma'naviy darajasining tushib ketganligi, oilaviy an'analar va qarindoshlar orasida oilalararo aloqaning yo'qolib borayotganligi, ular orasida muloqotlarning kamayib ketishi, ota-onalar alkogolizmga juda bog'liq bo'lib qolishi, ota-onalar mavqeining tushib ketishi, bolalarni to'g'ri va tizimli tarbiyalashning bilishmasligi yoki istamasliklari; bolalarga e'tibor bermaslik, tan olmaslik yoki aksincha ularni haddan ziyod erkalash, bolaning xohishi qonun ruhidagi oilani shakllantirish va boshqalar;

- noto'g'ri tarbiya va tashqi agressiya ta'sirida bolalarning ruhiy kamol topishidagi cheklanishlar;

- voyaga yetmaganlarning ma'naviy va huquqiy savodxon bo'lib kamol topishining buzilishi, huquqiy nigilizm, moddiy ehtiyojlarning ma'naviy ehtiyojlarga nisbatan nomuvofiq rivojlanishi, tartibsizlikning hayot tarziga aylanishi. Jinsiy axloqsizlik, iste'molchilik xususiyatining o'sishi; ommaviy madaniyatning zararli ta'siri;

- ta'lim tizimida o'qishdan qiyinchilik chekayotgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlamaslik, natijada o'smirlar maktabdan tashqaridagi hayotga qiziqa boshlashi;

- individualizm kayfiyatining oshishi, manmanlik va nizoli holatlarni zo'rlik bilan hal qilish, zo'ravonlikning oshishi;

- voyaga yetmaganlarning g'ayri ijtimoiy va jinoiy guruhlar a'zolari bilan muomala qilishga yo'l qo'yib berish;

- jinoiy hayot tarzi mavqeining ta'siri;
- voyaga yetmaganlar orasida narkomaniya va alkogolizmning o'sishi;
- voyaga yetmaganlarning ommaviy nazoratsiz va qarovsiz qolishlari;
- davlat va jamoat muassasalari va tashkilotlarining tarbiyalovchi va nazorat qiluvchi xususiyatlarini pasayishi va boshqalar;

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

- voyaga yetmagan yoshlarning jamiyatni boy va kambag'allarga ajralishining asosida mehnat emas, balki adolatsizlik yotadi, - deb tushunishi;
- osonlik bilan boylik orttirishga bo'lgan havas;
- voyaga yetmaganlar uchun bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishning keng tizimini yetarli darajada tashkillashtirmaslik;
- voyaga yetmaganlar tomonidan kasbiy ta'limni davom ettirishdagi ayrim tushunmovchiliklar, ya'ni ota-ona va farzand kasb tanlashda bir-birini tushunmasdan noto'g'ri yo'naltirilgani, ish bilan ta'minlashning yetarli darajada emasligi, kam haq to'lanadigan va malaka talab qilmaydigan ish, mehnat bilan shug'ullanishni istamaslik va boshqalar.

Voyaga yetmagan yoshlarning huquqbuzarligi va jinoyatchiligini oldini olishda ***profilaktika tizimi*** muhim omil sanaladi.

Huquqbuzarlikning oldini oluvchi profilaktik tashkilotlar bajaradigan vazifasiga qarab to'rt darajaga bo'linishi mumkin.

1) *Birlamchi ijtimoiy profilaktika tashkilotlari* – ta'lim va tibbiyot muasassalari bo'lib, ular yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiladi, ta'lim-tarbiya beradi, ularning oqilona ijtimoiylashuviga yordam beradi.

2) Birlamchi ijtimoiy profilaktik tashkilotlarning keyingi darajasi – ijtimoiy uylar, cheklangan imkoniyatli bolalar uchun moslashuv markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari, psixologik-tibbiy ijtimoiy markazlar, internatdan keyingi ijtimoiy moslashuv markazlari va boshqalar bo'lib, ular asosan ijtimoiy moslashmagan, qiyin hayotiy ahvolda qolgan bolalarga yordam ko'rsatishadi. Ular huquqbuzarlik sodir etish xavfi bo'lgan bolalar bilan ishlashadi.

3) Maxsus profilaktikaning ikkilamchi muassasalari-ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bo'linmalari, ochiq va yopiq maxsus o'quv-tarbiya muassasalari

4) Jinoiy – huquqiy va jinoiy–ijroiya profilaktikasi muassasalari – tarbiya koloniyalari bo'lib, ularning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarning retsidiv jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan.

O'smir pastroq darajadagi profilaktik muassasa faoliyatida kutilgan natija bermasagina yuqori darajadagi profilaktika muassasasining obyektiga aylanadi. Shunday ekan, biz yoshlarni birlamchi darajadagi ijtimoiy profilaktik muassasa yordamida to'g'ri yo'lga boshlab, ularning huquqbuzarlik sodir etishlarining oldini olib, imkon darajasida yuqori profilaktika muassasalari yordamiga muhtoj bo'lmasligiga erishishimiz lozim. Buning uchun mamlakatimizda har haftaning payshanba kunini profilaktika kuni deb belgilab qo'yildi va bu kunda olib borilayotgan profilaktik ishlar o'z samarasini bermoqda.

Nafaqat jinoyat sodir etmaslik, balki ularning sodir etilishini oldini olishda faol ishtirok etishi uchun, 2018 yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida 15-son qarori qabul qilindi. Mazkur nizomda qasddan sodir etilishi rejalashtirilayotgan yoki sodir etilayotgan ma'muriy huquqbuzarlikning yoxud jinoyatning oldini olish yoki to'xtatish, qidiruv e'lon qilingan yoki bedarak yo'qolgan shaxsning manzili haqida ma'lumot berish, shuningdek, aholi o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi targ'ibot-tashviqot tadbirlarida faol ishtirok etganligi uchun fuqarolar va jamoat tashkilotlari

rag‘batlantirilish tartibi belgilab qo‘yilgan. Ushbu tizim fuqarolarimizga to‘g‘ri va maqsadli targ‘ib qilinsa yoshlar orasida, umuman jamiyatda huquqbuzarliklar oldini olishda o‘z samarasini beradi.

O‘ylaymizki, barcha ta’lim muassasalarida, oilalarda, tegishli muassasalarda yoshlar huquqiy tarbiyasida yuqorida keltirilgan uslubiy ko‘rsatmalarga amal qilinsa, yoshlarimiz orasida huquqbuzarliklar soni kamayib, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yanada yuksaladi.

Sharqda oila, Vatan himoyasi yigitlar zimmasidagi sharafli burch hisoblanadi. Shuning uchun yigitlarni tug‘ilgandan boshlab jamiyat, xalq, vatan ravnaqi uchun ham ma’naviy, ham jismonan tayyorlash har bir ota-ona, o‘qituvchi-murabbiy, keng jamoatchilikning vazifasi hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, vatan sarhadlarini har tomonlama himoya qilish, oilalarning farovonligini ta’minlashda yigitlarning mas’uliyati yanada ortib bormoqda. Yigitlardagi bunday yuksak sifatlar ayniqsa, ularning o‘smirlik davrida faol shakllanadi.

Shunday ekan, nafaqat qizlarni balki yigitlarni ham hayotdan munosib o‘rin topishi uchun o‘smirlik chog‘idan mustaqil hayotga tayyorlash lozim. Bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalash sohasida faqat o‘qituvchigina emas, ota-onalar, hatto keng jamoatchilik ham faol qatnashishi zarur. Demak, bugungi kunda o‘smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya’ni bilimli, kuchli, sog‘lom, botir, vatanparvar, jasur va kasb-korga ega etib tarbiyalash borasida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila, mahalla, maktab hamkorligida kasbga yo‘naltirish bugungi kunning ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati hisoblanadi. To‘g‘ri, maktablarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari olib borilardi, mashg‘ulotlar ham o‘tkazilardi, hatto yirik maktablarda kasb-hunar xonalari, tikuvchilik, duradgorlik, metall ishlari bo‘yicha ustaxonalar ham mavjud bo‘lgan. Kasb-hunar maktablarda muntazam faoliyat yuritar edi. Biroq kasb-hunar ta’limining samarasi yo‘q edi. Chunki ularning maktabda o‘rganiladigan kasb-hunarlar amaliyot bilan bog‘lanmagan bo‘lib, eski asbob-uskunalar bilan jihozlangan ustaxonalarda o‘rgatilar edi. O‘quvchilar amaliyot uchun zavod-fabrikalarga yuborilganda esa, u yerdagi rahbarlar ularga murabbiylar biriktirmasdan kasb-hunarni yaxshi o‘rganishlariga loqaydlik bilan qarar edilar. Natijada o‘smir yigitlar biror kasb-hunarni to‘liq o‘rganmay turib, hayotga o‘smir yigitlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda kasb-hunar o‘rgatishning sharqona usullari, xalqimizning bu boradagi qadimiy an’analari, tajribalarini o‘rganib, uni turmushga keng tatbiq etish samaraliroq bo‘ladi.

Xalqimizning kasb-hunar o‘rgatish borasidagi an’anaviy usullari bugungi kunda ham g‘oyat dolzarbdir. Bu borada mahalla, maktab, oilalarda tashkil etilgan kasb-hunar o‘rgatishning an’anaviy usullari - ustoz-shogird shakli aynan o‘smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda qo‘l kelmoqda.

Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda qator omillarga e’tibor bermoq lozim:

- oilaning jamiyatda tutgan o‘rnini yigitlar ongiga singdirish chuqur anglash;
- oilaning ijtimoiy-ma’naviy holatini yaxshilashga dahldorlikni shakllantirish (ziyoli, tadbirkor, dehqon, katta, kichik va h.k.);
- ota-onalarning pedagogik-psixologik madaniyati darajasini oshirish;
- oilada boshqarish tizimining holatini yaxshilashga doir bilimlar bilan qurollantirish; - oila sulolasining tarixi, buguni va istiqbolini belgilash;
- oilada ota-ona, oila a’zolarining munosabatlarini sog‘lomlashtirish borasidagi qarashlarini shakllantirish;
- oilada erkak kishining o‘rni anglash va tushunish;
- oila a’zolarining maqsad va maslak mutanosibligini ta’minlash borasidagi ko‘nikmalar bilan qurollantirish;

- oilaning moddiy ta'minoti borasidagi bilimlar bilan ta'minlash;

- oila a'zolarining maishiy turmush darajasiga bog'liq bo'lgan tushunchalarni anglab yetish;

- oilaning demokratik tamoyil va o'zaro hurmat asosida boshqarilishi borasidagi tajribasini orttirish;

- oila a'zolarining fiziologik, psixologik xususiyatlariga doir bilimlar bilan qurollantirish;

- oila a'zolarining qiziqishi bilan ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash;

- oila a'zolarining ijtimoiy kelib chiqishi hamda kasbiy faoliyatlari o'rtasidagi mutanosiblikka e'tibor qaratish.

Yigitlarni oilada, maktab va jamoatchilik hamkorligida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning samaradorligi ota-onalarning pedagogik va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. Buning uchun oila psixologiyasi va pedagogikasi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- milliy mafkuraviy qadriyatlarni o'g'il-qizlar tafakkuriga singdirishning maqbul shaklini o'rgatish;

- yosh ota-onalarni o'smirlar tarbiyasiga g'oyaviy, psixologik, pedagogik va uslubiy tayyorlash.

- oilaviy tarbiya bo'yicha zarur qoidalar bilan ota-onalarni qurollantirish;

- ota-onalarni ma'naviy tarbiyaning milliy va umuminsoniy yutuqlari mohiyati, ilg'or tajribalar bilan tanishtirish;

- o'smir yigitlar psixologiyasi, fiziologiyasi haqida ilmiy-nazariy g'oyalarni ularga yetkazish.

Ota-onalarning yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda quyidagilarga amal qilishlari maqsadga muvofiqligi aniqlangan:

- o'smir yigit bilan samimiy muloqot o'rnatish;

- uning Menini hurmat qilgan holda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash;

- o'smirga talab qo'yganda uning imkoniyatlarini inobatga olish, muammolariga befarq bo'lmaslik;

- o'smirni hayotda muammolarni qiyinchiliklarsiz hal qilishga o'rgatish;

- o'smirni kasbga yo'naltirib, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish hamkorligini amalga oshirish;

- sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiyaga jalb etish orqali ularni hayotga jismonan sog'lom qilib tayyorlash;

- oilada sog'lom muhit yaratish, farzandlar uchun ota-onaning har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarda ota-onasiga, Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishini ta'minlash;

- o'smirlarga axloqiy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- farzandlarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish kabilar kiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, ta'kidlash mumkinki, o'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila, mahalla va maktab hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, agar biz voyaga yetmagan bolalar va yoshlar orasida huquqbuzarlikni o'z vaqtida oldini olish choralarini ko'rmasak, ertaga xalq va davlat oldida juda katta muammoni yuzaga keltirishimiz va u bilan kurashishda katta kuch, mablag' va eng qimmatlisi – insonlar hayotini behuda yo'qotishimiz mumkin.

Meditsinada ham kasalikka o'z vaqtida tashxis qo'yish davolashni samaradorligini ta'minlaydi.

Yuqumli kasalliklarda esa juda katta e'tibor oldini olish choralariga qaratiladi, chunki chuma-toun, xolera-vabo tarixda qisqa muddatda millionlab insonlar hayotini olib ketgan. Huquqbuzarlik esa ijtimoiy jihatdan ulardan xam xavflidir, chunki u ko'zda tashlanmaydigan, ammo ziyon yetkazish jihatdan toun, vabodan qolishmaydigan o'ta dolzarb ijtimoiy muammodir.

Voyaga yetmagan yoshlarda huquqbuzarlikning sabablari nimada? Savoliga javoban psixologiya fani nuqtai nazardan quyidagilarni keltirish mumkin.

Oila o'zini 8 ta funksiyasi ichida eng yetakchilaridan hisoblangan tarbiya vazifasini bo'shashtirib yubordi. Yetti qo'shni

ota-ona tamoyiliga amal qilish mahalliy xalqlarda yildan-yilga kamayib boryapti.

Jamoaviylikdan individualizmga qarab ketish jarayoni boshlandi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiya jarayoni aholiga katta komfort-qulayliklar yaratish bilan birga muqarrar ravishda ayrim ijtimoiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirayapti.

Shaxs ustidan ijtimoiy nazorat zaiflashib borayapti.

Odamlar nima deydi?, mahalla kuy, qarindoshlar orasida obro'yimiz nima bo'ladi? degan tamoyil o'z kuchini yo'qotayapti.

Shaharlardagi ko'p qavatli uylarni qurilishi va hovli mahallalar aholisi ko'p qavatli domlarga ko'chib o'tishi shaxsni anonim hayot kechirish imkoniyatini oshiradi. Bu esa huquqbuzarlik, jinoyatchilikka yaxshi sharoit yaratadi.

Bundan 40 yil oldin jinoyatchilik bilan shahardagi uylarning ko'p qavatlilik orasida bog'liqlik-korrelyatsiya borligi xorijiy olimlar tomonidan aniqlangan.

Oilalarning aksariyat qismi bola shaxsini shakllantirishda, ularni tarbiyasida urg'uni axloqiy, huquqiy tarbiyadan iqtisodiy ta'minot tomonga ko'chirishdi. Ya'ni ko'pchilik oilalarda ota-onalarning asosiy vazifasi bolalarni yaxshi moddiy ta'minlash deb tushunilayapti. Natijada bolalar moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan, ammo ma'naviy, axloqiy jihatdan oqsaydi va asotsial shaxslar ta'siriga oson tushishga imkoniyat yaratiladi.

Bugungi oilalarda an'anaviy oilalardan farqli ravishda oila a'zolari orasidagi jonli muloqot, oilaviy mehnat faoliyat turlari keskin kamayib borayapti. Bolalar so'ngi yillari aka-uka, opa-singillari bilan muloqotda bo'lishga nisbatan internetdagi turli saytlar bilan muloqotda bo'lishni afzal ko'rishayapti. Internetga tobe bo'lish natijasida oilani bolaga ta'sir kuchi zaiflashish holatlari namoyon bo'lmoqda.

Televideniyedagi turli kanallar, internetdagi har xil filmlar orqali yoshga mos bo'lmagan holatlarni, agressiya, qotillik, tajovuz va boshqalarni muntazam ravishda ko'rib borishi bolalarning shaxsida ayrim psixologik o'zgarishlarga olib kelayapti. Natijada insondagi rahmdillik, mehr-shafqat, hamdardlilik, empatiya, insoniylik, altruizm kabi ijobiy hislar ko'pgina yoshlar tomonidan shaxsni zaifligi sifatida idrok etilib, aksincha agressiya, zo'rlik, tajovuz, sadizm, qo'pollik, kattalar bilan o'zini yomon qo'pol muloqotda bo'lishi, ularni noo'rin haqoratlash, egoizm va boshqa salbiy xislatlar shaxsni ijobiy sifatlari sifatida idrok etilib, yoshlarni huquqbuzarlikka chorlayapti.

Dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil etar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o'sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchani birday tashvishga soladi. 2018 yil 14 martdagi Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida: "bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta'sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish", vazifasi belgilanishi bilan bugungi tobora keskinlashib borayotgan tashvishli davrga baho berildi. Zero, mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik, o'zaro hurmat muhitini saqlash, huquqiy savodxonlikni, aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirishni ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 7 milliondan ortib ketgani ko'pchilikka ma'lum. Avvalo, Internet ham fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolutsiyasi hosilasi hisoblanadi. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar soni tobora ortib borishini ta'minlamoqda, deyish mumkin. Biroq, globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet

tarmog‘i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmaslik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma’lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni **bir necha yuz millionni** tashkil etgan. Ogoh bo‘lishga chaqiradigan internet tarmog‘i bilan bog‘liq yana bir ma’lumot shundan iboratki, hozirda global tizim tarkibida buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlaydigan kuchlarning **7000 dan ortiq** veb-sahifalari mavjud. Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishlarini taqozo etadi. Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda buzg‘unchi omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli ekstremistik va terrorchi uyushmalar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo‘llamoqda.

Jamiyatdagi farmatsiya o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda yangi yosh avlodda hayotiy qiymatliklar o‘rni o‘zgargan. Moddiy qiymatliklar salohiyati keskin oshgan.

Yuqoridagi o‘z ifodasini topgan o‘zgarishlar voyaga yetmagan yoshlarda huquqbuzarlik muammosini aktuallashishida, ayniqsa jinoyatchilikni og‘ir turlarini o‘sishda shart-sharoit vazifasini o‘taydi.

Yoshlarda huquqbuzarlikni yuzaga kelishi hamda son jihatdan o‘sishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillardan biri ota-onalarni psixologik savodsizligi, bolalarni yosh, jins, individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik va yoshlarimizda sotsializatsiya, ijtimoiylashuv davrini uzayishidir.

Ushbu muammoning birinchi qismi oldingi avlodlarda ham bo‘lgan, ammo ularni davrida nuklear oilalar, bola tarbiyalash (buva, buvilari) ya’ni katta avlod roli yetarli bo‘lgan. Shu bilan birga oilalarda ishlab chiqarishga jalb qilingan ayollar bugungidek ko‘p bo‘lmagan.

Oilada tarbiya bilan an’anaviy asosan onalar shug‘ullangan. Ularga yuqorida qayd etilganidek buva va buvilar maslahat berib kelgan. Otalar obrazli qilib aytganda, oilada moliya va adliya vazirligi hamda genprokuratura vazifalarini bajarib kelgan.

Onalar mehr-muhabbati bilan otalar mexr-muxabbatini orasida psixologik jihatdan yetarli farq bor.

Onalarni farzandlarga bergan muhabbati juda kuchli beg‘araz altruistik. Bir farzandi ikkinchi farzandini o‘ldirsa ham qotil o‘g‘ilga nisbatan ona mehri kamaymaydi.

Otalar mehrida kuchli mehr-muhabbat bilan birga adolat mavjud bo‘lib, agar farzandi og‘ir jinoyatga qo‘l ursa unga berilgan jazoni adolat sifatida qabul qiladi, ba’zan esa o‘zi ham qattiq jazolashga tayyor bo‘ladi. Shu sababli ham tarbiyada, ayniqsa o‘g‘il bolalarni huquqiy tarbiyasida ota obrazini roli kattadir.

So‘ngi yillari oilada erkaklar mavqeini birmuncha pasayishi, ayollarda oshib borayotgan maskulinizatsiya va erkaklar shaxsida ko‘payib borayotgan feminizatsiya jarayoni ham bolalar va ota-onalar orasidagi nizoli vaziyatlarni ko‘payishiga, otalarni tarbiyaviy ta’sir kuchini pasayishiga va yuqoridagilar o‘zga omillar bilan birgalikda yoshlar idrokida kriminalni ideallashtirib huquqbuzarlikni, jinoyatchilikni yoshlar idrokida kultga aylanishi va natijada jinoyatchilikni o‘sishiga yana bir qulay shart-sharoit yaratilishi mumkin.

Oiladagi psixologik jihatdan o‘ta nosog‘lom muhit, nochor-noto‘liq oila, ma’lumot va madaniy saviyasi past bo‘lgan muammoli oilalar, ota-onalari gastrabayterlik qilib yurgan farzandini qarindoshlarga topshirib ketgan oilaning bolalari, otasi yo‘q onasi fohishabozlik bilan shug‘ullanayotgan oilalar, ota-onasi alkogolik yoki giyohvand bo‘lgan oilaning bolalari, ota-onasi katta lavozimlarda ishlab bolasi bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati bo‘lmayotgan ayrim oilalarning bolalari ko‘cha ta’siriga oson tushib ularni rahbarligida huquqbuzarlik, giyohvandlik so‘ngra esa jinoyatchilikka qo‘l urayotgan voyaga yetmagan yoshlarni yuzaga kelishida xam

oila va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi.

Voyaga yetmaganlarni huquqbuzarligi asosida yotgan eng keng tarqalgan va deyarli barcha avlodlarda an'anaviy tarzda kuzatilayotgan sabablardan biri bu yoshlar tomonidan o'zini shaxsini tasdiqlashni buzilgan formada ifodalanishidir. Namoyishkorona, ya'ni demonstrativ chekish, ichish, o'qituvchi va ota-onalar bilan qo'pol muomola qilish, kattalarga quloq solmaslik, o'z bilganidan qolmaslik, yosh jihatdan inqiroz davrini boshdan kechirishi asosida o'zini katta qilib ko'rsatish hissi yotadi. Huquqbuzarlik xam bu yosh davrda yetarli uchraydi. Ushbu yosh davrida bolalar o'zi anglamagan holda ota-onalarini tarbiyachilik qobiliyatini sinovdan o'tkazadilar. Ba'zi guruh bolalar o'qishida doimo muammolari bo'lgani sababli o'z shaxsini tasdiqlashga, sinfda ma'lum reytingga ega bo'lish motivida huquqbuzarlikka qo'l uradilar.

Yoshlarda huquqbuzarlikni yuzaga kelishi va ko'payishida turli filmlarda kriminalni ideallashtirish ijobiy obraz sifatida ko'rsatish kuchli ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli filmlarni yaratishda ayniqsa internet orqali yoshlarimiz turli mazmun g'oyadagi filmlarni ko'rishi mumkinligini hisobga olib, ularni ko'rishni ta'kidlash emas, balki ulardan kerakli narsani olishni, ko'rganlarni yoshlar o'z ongida axloqiy, aqliy, mantiqiy, insoniy filtrdan o'tkazishga o'rgatishimiz lozim.

Voyaga yetmagan bolalarda va umuman yoshlarda huquqbuzarlikni oldini olish maqsadida quyidagilarga e'tiborimizni kuchaytirishimiz kerak:

-maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklar, maktab o'quvchilariga hikoya, rivoyat, maqol, badiiy asar, aforizm, masal, latifalar, mashhur kishilar hamda taniqli zamondoshlar hayotidan olingan namunali lavhalar, kinofilmlar vositasida turli tarbiyaviy, maqsadli tadbirlar o'tkazish;

-voyaga yetmagan bolalarni bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish;

-bolalarni erta yoshligidan bilan shug'ullanishga jalb qilish, sog'lom turmush tarzini bolalik yoshidan shakllantirish, ayniqsa xulqi og'ir bolalarni tegishli turlari (boks, sambo, dzyudo, kurash, kikboksing, sharq yakka kurashi va komanda bo'lib o'ynaydigan turlari – futbol, basketbol va boshqalar) bilan muntazam shug'ullanishga erishish;

-maktab psixologlari ushbu masalaga alohida e'tibor berishlari kerak;

-maktab psixologlari uchun shahar, tumanlarda bir kunlik maqsadli seminarlar o'tkazib, ularni ilmiy-uslubiy qurollantirish, ularga psixologo-pedagogik jihatdan yordam berish lozim;

-umumta'lim maktablarining ota-onalar universitetlarida ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlar berilishi kerak;

-huquqbuzarlikka moyil bo'lgan bolalar bilan psixolog va sinf rahbarlari oilasi bilan hamkorlikda yakka holda ish olib borishlari kerak;

-huquqbuzar bolalarni jazolash emas, balki u bilan psixolog maxsus ish olib borishi lozim. Bunda urg'uni bolani kamchiliklariga berish emas, balki bolani shaxsidagi ustunlik tomonlarini maksimal rivojlantirishga va u yordamida kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilish lozim;

-ushbu muammo bo'yicha ilmiy-ommabop adabiyotlar tayyorlash va tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda, huquqbuzarlikni oldini olishda o'quvchilar bilan huquq-tartibot organlarining xodimlari tomonidan o'tkaziladigan uchrashuvlar bilan cheklanmasdan, taniqli san'atkor, olim, yozuvchi, shoir, rahbar va boshqalar bilan yuzma-yuz uchrashuvlarini, savol-javob kechalarini o'tkazish katta samara beradi.

Shirinova Nargiza Djabbarovna,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o'rganish kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

INGLIZ TILI DARSLARIDA OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Milliy tilimiz e'zozlanayotgan bir paytda taraqqiyotimizning garovi bo'lmish xorijiy tillarni o'rganishga ham katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda harbiy kadrlarni har tomonlama rivojlantirish bosh maqsadlardan biri ekan, bu g'oya kursantlarga xorijiy tillarni o'qitish maqsadlari bilan hamohangdir.

Ma'lumki, chet tilni ta'limiy, tarbiyaviy, amaliy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rganadilar. Kursantlar bilimini, aqliy qobiliyatini, fikrlay olish ko'nikma va malakalarini hosil qilish hamda ularni ilmiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan yuksaltirish – tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishda uning bilish faolligini oshirish alohida o'rin tutadi. Bu esa, o'qitish usullari va vositalarini to'g'ri tanlay olish bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchilardan yuksak mahorat talab qiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi chet til o'qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo'lishi zarur.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchga bo'linib, ular tanishish, mashq qilish va qo'llashdan iborat. Ushbu uch atamani metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelinadi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. Dars jarayonida kursantlar o'quv materiali (ya'ni til materiali) bilan tanishadi, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilishadi hamda o'z fikrlarini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishadi[1].

Chet til o'qitish bir butun sistema, ya'ni ta'lim tizim sifatida olib qaralganda, uni o'rgatuvchi va o'rganuvchi kabi ikki tomonlar tashkil qiladi. Muallim ta'lim jarayonining tashkilotchisi sifatida yuqorida izohlangan bosqichlarni amalga oshiradi.

O'qituvchining ta'lim berishdan maqsadi faqat til faktlarini yetkazib, kursantlarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirishdangina iborat emas. Zero, bilim berish barobarida tarbiyaviy maqsadni ham amalga oshirish kursantlarning bilish faolligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchiga yuklanadigan uchinchi vazifa – nazorat qilishdir. Kursantlar bilish faolligining darajasi faqatgina nazorat qilish orqali belgilanadi. Kursantlar bajarayotgan mashqning to'g'ri yoki noto'g'riligini o'qituvchi kuzatadi. U til materialini qo'llash chog'ida nutq faoliyatining to'g'riligini nazorat qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan chet til o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar (tanishish, mashq qilish, qo'llash) kursantlarning bilish faolligini, demakki ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim komponentlar bo'lib hisoblanganligi bois quyida ular haqida kengroq to'xtalmoqchimiz.

Chet til o'qitish jarayonidagi *tanishish* bosqichi o'quv materialini o'rganishdagi birinchi qadam bo'lib hisoblanadi. O'rganuvchi lisoniy birliklarni o'rganishga kirishar ekan, uning shakliy tomoni (tovush tomonini og'zaki nutqda aniq-ravshan eshitish yoki grafik timsolini yozma matndan ko'rib o'qiy olish), ichki ma'noviy tomoni (predmet, hodisa, harakat bilan fikran bog'lash) va sintagmatik munosabatlari (boshqa birliklar bilan qo'shilishi, qanday holatda ishlatilishi) bilan tanishadi. Kursantlarga chet tilni o'rgatishning amaliy maqsadi – o'qish, ya'ni o'qib ma'lumot olish bo'lganligi uchun ham ularga mo'ljallangan ta'lim dasturi turli xil mazmunga ega bo'lgan, bilish faolligini oshirishga xizmat qiladigan matnlardan iborat bo'lishi zarur.

Masalan, "Great Military leaders" matni bilan tanishish chog'ida buyuk harbiy

sarkardalarning kelib chiqishi, yurishlari, sarkardalik qobiliyati, zabt etish usullari bilan tanishtiriladi va kursantlarda tushuncha hosil qilinadi.

Bilish faolligini oshirishning zaruriy komponenti hisoblangan *mashq qilish* metodi orqali o'rganilayotgan til hodisalari, lingvistik tushuncha va faktlar mustahkamlanadi, puxta egallanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi. Masalan, "Great Military leaders" matnining tushunganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi vazifalardan foydalanish mumkin [2].

1.Fill in the gaps using correct forms of *to be* in the Past.

Since young age Timur *was* smart and courage, he liked to talk with scientists, listening to the reading of historical works. He ... a good ruler and a talented organizer. Armenia, Azerbaijan, Iraq, Iran, India, Damask and Egypt ... conquered by Amir Timur.

2.Tick [√] the correct arguments and cross [×] incorrect ones.

1. Temur was born in 1336 in Samarkand.	×
2. In 1370 Timur was proclaimed supreme Emir of Turan.	
3. Babur was a ruler at the age of 15.	
4. Babur and Shayboniykhan were strugglers.	
5. Manguberdi was a poet.	
6. Manguberdi was a military commander.	
7. Islam Karimov was born in 1945.	
8. Karimov was strongly against terrorism and religious extremism.	

Amaliy muloqot maqsadida til materialini qo'llash uchinchi bosqich hisoblanadi. Qo'llash davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi. Masalan, "Great Military leaders" matni bo'yicha mustaqil ravishda fikr yuritish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalansa bo'ladi.

1.Describe the war or difficult situation which one of great military leaders took part in.

2.Work in pairs. Choose a military leader. Do not tell your partner the name. Tell the information to Student B about that person. Student B will find out the person.

Dars jarayonida kursantlarning bilish faolligini oshirish, ya'ni o'rganilmagan materialni amalda, mustaqil bayon etish imkoniyatini tug'dirish, kursantlarning so'z boyligini, dunyoqarashini shakllantirish, o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon qila bilish, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ifodalay olish qobiliyatini o'stirish – dolzarb vazifadir. Chunonchi, erkin faoliyat ko'rsatish natijasida egallangan bilim puxta va mukammal bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tili darslarida kursantlarning bilish faolligini oshirishda til qoidalari, grammatik va fonetik tushuncha va qonuniyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash bilangina chegaralanib qolmay, har xil amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlar, musobaqa va o'yin-topshiriqlar singari qiziqarli usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, o'yin-topshiriqlarning ahamiyati shundaki, mazkur usul orqali nafaqat kursantlarning topqirligi, bilimdonligi, izlanuvchanligi va bilish faolligi oshadi, balki ularning insoniy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Ingliz tili darslarida kursantlarning bilish faolligini oshirish va ularning mustaqil fikr yurita olishini ta'minlashda o'yin-topshiriqlar lingvistik tushunchalarni mukammal va har tomonlama egallashga imkon beradi. Binobarin, ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yin-topshiriqlarning metodik tipologiyasi yaratilib, ulardan amalda foydalanish metodikasi bilan o'qituvchilar to'la qurollantirilsa, bu kursantlarning til materialiga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi[3]. Yoshlarning qiziqishi ortgan sari mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaralarga o'rgana boradi. Ularning astasekin xorijiy mamlakatlar harbiy tizimi haqidagi nuqtai nazari, qarashi shakllanadi va bilish faolligi oshadi. Ingliz tili darslarida kursantlarning bilish faolligini oshirishda ta'limiy o'yinlarning rangba-rang turlaridan foydalanish mumkin. Ulardan misol keltira-

miz:

Leksik o'yinlar

"Who is fast". Maqsad: so'z birikmasi yasash ko'nikmasini shakllantirish. O'yinning borishi: O'qituvchi kursantlarni ikki guruhga bo'lib, qog'oz bo'laklariga so'z birikmalari qismlarini ya'ni, fe'l, predlog, artikl va otlarni yozadi, ularni bo'laklarga ajratadi va ulardan ko'proq va tez so'z birikmalari topgan guruh g'olib sanalishini aytadi.

Masalan, so'zlarni quyidagicha bo'laklarga ajratadi: *crawl, ditch, the, down, the, jump, crawl, the, tunnel, wire, through, under.*

Kursantlar ulardan quyidagi so'z birikmalarini yasashadi:

jump down the ditch
crawl under the wire
crawl through the tunnel

Grammatik o'yinlar

"Search and find". Maqsad: gap bo'laklarining gapdagi o'rnini anglash ko'nikmasini shakllantirish. O'yinning borishi: Kursantlarga harbiy sohaga oid o'rganilgan matndan kelib chiqib ot, fe'l, sifat, predlog va bog'lovchilar yozilgan kartochkalar tarqatiladi va o'rganilgan matndagi gaplar mazmuniga to'g'ri keladigan gap tuziladi.

Masalan, o'qituvchi tomonidan *individual, operations, exercises, clothing, On, soldiers, and, carry, food, protective, ammunition, their, water, weapon, and.* kabi so'zlar keltiriladi va kursantlar uni quyidagicha bajarishlari mumkin (3-5 daqiqa ichida): **On exercises and operations, soldiers carry their individual weapon, ammunition, water, food and protective clothing.**

Yoki *guns, and, equipped, The, with, Support, mortars, anti-tank, Company, is, weapons, machine.* kabi so'zlar berilganda kursantlar quyidagicha bajarishlari mumkin (3-5 daqiqa ichida): **The Support Company is equipped with mortars, anti-tank weapons and machine guns.** Eng tez gap tuzgan guruh g'olib sanaladi.

Fonetik o'yinlar

"Bingo". Maqsad: so'zlar va so'z birikmalarining talaffuz qilinishi bo'yicha ko'nikma hosil qilish. O'yining borishi:16*10 tarzidagi kataklar tuziladi. Kursantlarni ikki guruhga bo'lgan holda o'yin tashkil qilinadi. So'z birikmalari o'qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi va kursantlardan ularni topish so'raladi. Kursantlar harflar va ularning talaffuzini bilgan holda so'z birikmalarini qidira boshlaydi va topgan zahoti "Bingo" deb baqiradi. So'z birikmalarini tez va ko'p topgan guruh g'olib sanaladi.

B	L	A	C	K	T	R	O	U	S	E	R	S	E	O	N
L	A	W	R	G	K	L	S	F	M	H	C	W	I	D	R
U	X	B	Y	C	D	B	L	A	C	K	B	E	L	T	E
E	B	Z	B	A	D	G	E	O	F	R	A	N	K	O	D
S	*G*	*R*	*E*	*E*	*N*	*J*	*A*	*C*	*K*	*E*	*T*	P	T	Q	B
H	Y	E	L	L	O	W	E	P	A	U	L	E	T	T	E
I	G	O	L	D	E	N	N	A	M	E	T	A	G	R	R
R	E	D	B	E	R	E	T	J	S	X	K	E	N	U	E
T	A	Q	I	Z	M	H	V	J	P	L	T	F	G	Y	T
C	A	M	O	U	F	L	A	G	E	B	O	O	T	S	U

Bu o'yinlar kursantlarga bilimlarni o'zlashtirish, til materiali, ya'ni leksika, grammatika va talaffuz ko'nikma va malakalari hosil qilishlarida yordam beradi va tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.:O'qituvchi, 2012. – 429 b.
2. Ширинова Н., Ширинова Н. English for Military. – T.: JXU, 2020. – 100 b.
3. Закотнова П. В. Использование игр при обучении иностранному языку в вузе// Современные методы и технологии преподавания иностранных языков.Сборник научных статьей. – Россия, Чувашский государственный педагогический университет имени И.Я. Яковлева, 2019.–С.88-92.

Shirinova N.D. Ingliz tili darslarida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining bilish faolligini oshirish muammolari

Maqola ingliz tili darslarida harbiy oliy o'quv yurtlari kursantlarining bilish faolligini oshirish muammolariga bag'ishlangan. Oliy o'quv yurti kursantlarining bilish faolligini oshirishning ahamiyati ko'rsatilib, bilish faolligini oshirish bo'yicha o'quv-topshiriqlari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan zamonaviy o'quv-topshiriqlari kursantlarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bilish faolligini oshirish, ingliz tili o'qitishda o'yin-topshiriqlarining samaradorligi, ixtisosiy o'qitish, kursantlarning qiziqishini oshirish.

Ширинова Н.Д. Проблемы повышения познавательной деятельности курсантов в высших военных учебных заведениях

Статья освещает проблемы, связанные с вопросами повышения познавательной деятельности курсантов в высших военных учебных заведениях. Представлена система упражнений по повышению познавательной деятельности курсантов, а также отмечена их роль при изучении английского языка. Названные в статье образовательные игры, способствуют повышению познавательной деятельности курсантов.

Ключевые слова: повышение познавательной деятельности, эффективность образовательных игр в процессе обучения английскому языку, специализированное обучение, повышение интереса курсантов.

Shirinova N.D. The problems of developing of cognitive activity of cadets in higher military education

Article deals with the methods of developing of cognitive activity of cadets in higher education. There was indicated the importance of developing of cognitive of cadets in higher education and worked out the exercises directed to the developing of cognitive activity. Given educational games can serve for developing of cognitive activity of cadets.

Key words: developing of cognitive activity, effectiveness of the educational games, specialized teaching, increasing of interest of cadets.

Toshev Abbos Abdug'aniyevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fakulteti tinglovchisi

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG XORIJIY DAVLATLAR ARMIYALARINING SHAHAR SHAROITIDA JANGOVAR HARAKATLARNI OLIB BORISHI VA JANGLARDAN ORTTIRILGAN TAJRIBALARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimiz hududlarining operativ jihozlanishini ta'minlash, hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimini takomillashtirish hamda davlat organlari barcha subyektlarining favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tayyorgarlik darajasini kuchaytirish muhim vazifadir.

Mudofaa sanoatini tizimli rivojlantirish, uchuvchisiz uchish apparatlari, zirhli avtomashinalar kompleksini takomillashtirish ishlari ham faoliyatimizning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, quyi pog'onalardagi bo'linmalarning axborot-psixologik ta'sirlarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini doimiy yo'lga qo'yish zarur"[1].

Shahar jangi-harbiy termin sifatida ilk bor 1993-yil AQSh boshchiligidagi koalitsiya kuchlari Iroq davlatiga bostirib kirganidan so'ng e'tibor berila boshlandi[2]. Iroqqa bostirib kirganidan so'ng shahar janglari AQSh qo'mondonligi va harbiy ekspertlari oldida yangi ko'rinishdagi chaqiruv sifatida namoyon bo'ldi. AQSh qurolli kuchlarining jangovar qobiliyati, kuch, shaxsiy tarkib soni, jangovar texnikasi va qurol-yarog'i jihatdan dunyoning birinchi armiyasi sifatida ko'rib kelinganligiga qaramasdan, shahar sharoitidagi janglarda yaxshi ishlab chiqilgan birorta ham taktikasi mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Bu AQSh qurolli kuchlarini yangi, tushunarsiz va noxush ko'rinishdagi urush sifatida tashvishga solib qo'ydi.

Aslida shahar janglari bu yangilik emas, insoniyat paydo bo'lganki janglar davom etib kelmoqda. Tarixiy faktlar shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi shahar janglarini miloddan avvalgi 1274 yilda xettlar va misr davlati qo'shinlari o'rtasida o'sha davrda strategik ahamiyatga ega bo'lgan Kadesh shahri uchun bo'lib o'tganligini tarixiy manbalarda keltirib o'tilgan [3].

Ma'lumki shahar uchun janglar katta ahamiyatga ega bo'lib, buning asosiy sababi shaharlarda davlatlarning boshqaruv organlari faoliyat yuritishi va qonunlar chiqarilishi ko'zda tutilgan. Shuning uchun ko'pincha davlatlarni yengish uchun katta shaharlarni yoki poytaxtini egallashi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bunga misol tariqasida 1453-yilda Vizantiya imperiyasining poytaxti Konstantinopol shahrini egallashi natijasida Vizantiya imperiyasi tanazzulga uchradi.

Zamonaviy harbiy mojarolar tajribasi, shu jumladan Ukraina hududida Rossiya qurolli kuchlari tomonidan olib borilayotgan maxsus harbiy operatsiya davomida qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi mudofaa chizig'ini asosan aholi yashash punktlari, oldindan tayyorlangan qarshilik ko'rsatish tugunlari va asosiy yo'llar yo'nalishlari bo'ylab qurish samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, jangovar va maxsus vazifalarni bajarish hamda strategik obyektlarni qo'riqlashni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli jangovar vazifalarni bajarish uchun hududiy mudofaa kuchlari va ko'ngillilar tomonidan amalga oshirilishi yaxshi samara bermoqda. Buning asosiy sababi ushbu bo'linmalardagi mavjud ko'ngillilar tomonidan jangovar harakatlar olib borilayotgan hududlarni yaxshi bilishi bilan bog'liq.

Yuqoridagi tajribani o'rganish jarayonida, AQSh va Buyuk Britaniya qo'shinlarining Iroqda olib borilgan jangovar harakatlarida, shahar va aholi yashash punktlarini egallash va qo'lga kiritish bo'yicha dushman tomonidan yaxshi

tayyorlangan qarshilik o‘choqlarini yo‘q qilish, ularning jangovar imkoniyatlarini pasaytirish, jangarilardan ozod qilingan aholi yashash punktlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha bir qator qiyinchiliklarga duch kelganligini ko‘rish mumkin. Ahamiyatli jihati shundan iboratki, shaharni jangarilardan ozod qilish bu birinchi masala bo‘lsa, u yerda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bu umuman boshqa masala, shuning uchun shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borish uchun bo‘linmalarni puxta tayyorlash va o‘rgatish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda qo‘shinlar soni, jangovar imkoniyati, texnika va texnologiya jihatidan ustun bo‘lgan dushmanga qarshilik ko‘rsatish va sezilarli tolofat yetkazish uchun janglarni shahar va aholi yashash punktlarida olib borish dolzarb hisoblanadi. Dushman bilan ochiqdan ochiq to‘qnashuv juda katta tolofatlarga olib kelishi sir emas. Bunday sharoitlarda dushman qiyinchiliklarga uchrashi shaharning zich joylashgan binolari, tinch aholi mavjudligi, shaharning infratuzilmasi kabi bir qator ahamiyati faktorlar inobatga olinadi. Shahar sharoitida dushman kuchlari va vositalarini manyovr qilish imkoniyati cheklanadi, jangovar harakatlar olib borish uchun qo‘shimcha kuch va vositalar jalb qilinadi, dushman bo‘linmalarini bo‘lib tashlash, ularga ortdan hujum qilish imkoniyatlari ortadi shuningdek, unga talofat yetkazish osonlashadi. Bunga misol ta’riqasida G‘azo sektorida olib borilayotgan jangovar harakatlarni ko‘rsatib o‘tsak bo‘ladi.

Ishg‘ol harakatlarini amalga oshirayotgan bo‘linmalar tomonidan egallab olingan binolarni saqlab turish va xavfsizligini ta’minlash uchun ushbu binolarda vaqtinchaga bo‘lsa ham (rezerv kuchlari yetib kelguniga qadar) komandirlar o‘z bo‘linmasi harbiy xizmatchilari tarkibidan qo‘lga kiritilgan binoning qo‘riqlovini amalga oshirish uchun kuzatuvchi qoldiradilar. Bu birinchi navbatda dushman tomonidan ortdan hujum qilishining va bo‘linmaning asosiy kuchlardan ajralib qolishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Ta’kidlash joizki ushbu harakatning salbiy taraflari mavjud aniqrog‘i, ishg‘ol qilayotgan bo‘linmalar shaxsiy tarkibining soni kamayadi va ishg‘ol qilish qiyinlashadi. Dushman tomonidan bo‘linmalarga tolofat yetkazish osonlashadi.

Yuqoridagi kabi muammoli holatlarning oldini olish maqsadida AQSh qurolli kuchlari qo‘mondonligi shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borish tajribalarini chuqur o‘rganmoqdalar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan o‘z vaqtida xulosa chiqarib, ishg‘ol harakatlarida ishtirok etadigan bo‘linmalarni harakat tajribalarini takomillashtirish ustida chuqur izlanishlar olib bormoqdalar[4].

AQSh tomonidan boshqariladigan koalitsiya kuchlari endilikda shahar sharoitidagi janglarini chetlab o‘tolmaydilar, sababi shaharlarning urbanizatsiyasi, dushmanning jang olib borish taktikasini o‘zgarishi va takomillashib borishi, kurashayotgan qarama-qarshi bo‘linmalar uchun haqiqiy sinov bo‘lib xizmat qiladi. AQSh harbiy ekspertlarining fikriga ko‘ra, ***“dushman bizning taktikamiz, texnikamiz, harakatlanishimiz va jang olib borish usullarimizni sinchkovlik bilan kuzatib kelmoqda. Ochiq maydonlarda qarshilik ko‘rsatish imkonsizligini bilgan holda usullarimiz va taktikamiz shahar sharoitida jang olib borishda yetarli darajada samarali emasligini biladi. Shuning uchun bizni kuzatib, o‘rganib vaqti kelsa yaxshi qarshilik ko‘rsatish uchun qo‘shinlarimizni shaharlarda jang qilishga undashi mumkin”*** deb hisoblashmoqda [4].

Yuqoridagilarni inobatga olib, qo‘shinlarni tayyorlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri, tarixiy tajribalar va amaliy tushunchalarni o‘rganish hisoblanadi. Masalan, AQSh qurolli kuchlari Panamaga bostirib kirishi va shahar sharoitida jang olib borishida harbiy razvedkaning ahamiyati va maxsus operatsiya kuchlarining kichik bo‘linmalari tomonidan nishonlarni aniq mo‘ljalga olish va yo‘q qilish vositalarining ahamiyatini sezilarli ravishda oshirdi.

Shuningdek, yuzaga kelgan gumanitar halokat va tanqislikni oldini olish va diplomatik maqsadlarga erishish uchun harbiy kuchlarni qo'llash bo'yicha Gaiti poytaxti Port-o-Prens shahrida olib borilgan jangovar harakatlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Mavzu yuzasidan o'rganishlar natijasiga ko'ra, Somali davlati poytaxti Mogadisho shahrida olib borilgan tadbirlar quyidagi faktorlarni inobatga olgan holda jangovar harakatlarni tashkil etish va olib borishga o'z ta'sirini ko'rsatgani namoyon qiladi. Bular mahalliy aholining siyosiy, tarixiy va madaniy kelib chiqishini inobatga olish zarurligini ko'rsatib berdi. Shuningdek, tez o'zgaruvchan taktik vaziyatda aloqaning uzluksizligini va boshqaruv organlarining o'zaro aloqalarini ta'minlash muhim omillardan biriligi namoyon bo'ldi[5].

Endi shu muammoli holatlar yuzasidan yana bir qancha xorijiy davlatlar tajribasidan misollarni keltirib o'tsak:

Bosniya va Gersegovina poytaxti Sarayevo shahrida olib borilgan jangovar harakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, shahrini to'liq kuzatish, nazorat qilish va jangovar harakatlar olib borayotgan bo'linmalarni kerakli vositalar bilan ta'minlash uchun vertolyotlardan keng foydalanilgan. Irlandiyaning Belfast shahrida Britaniya qurolli kuchlari olib borgan jangovar harakatlarda quyidagi tajribalar orttirildi. Agar shahar aholisining diniy, etnik, irqiy tomonidan tarqoqlik mavjud bo'lgan taqdirda, shaharni bir necha qismlarga bo'lib tashlash va jangovar harakatlarda muvaffaqiyatga erishish osonlashadi[6].

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari tomonidan Ukrainaning Seversk, Soledar, Baxmut, Toresk, Konstantinovka, Kramatorsk, Slavyansk va Mariopol shaharlari va aglomeratsiyasida olib borayotgan janglarida qo'llanilgan taktikasini alohida o'rganib chiqish kerak. Buning asosiy sababi ushbu harbiy maxsus operatsiyada qarama-qarshi tomonlarning jang olib borish taktikasi va harakatlarida sezilarli o'zgarishlar mavjudligi.

Bunga misol qilib quyidagilarni aytib o'tsak bo'ladi, Ukraina qurolli kuchlarining olib borayotgan jangovar harakatlarida NATOga a'zo davlatlarning razvedka ma'lumotlari va jangovar imkoniyatlaridan keng foydalanilishi; Ukraina xalqiga frontdagi vaziyat haqida noto'g'ri ma'lumotlar ommaviy ahborot vositalari orqali keng tarqatilishi va aholiga nisbatan psixologik aksiyalarni o'tkazish; mahalliy aholini jalb qilgan holda hududiy mudofaa bo'linmalarini yaratish va ularni jangovar harakatlarda keng qo'llash; dushman egallab olgan hududlarda tinch aholi o'rtasida ayg'oqchilar tarmoqlarini rivojlantirish; tinch aholini tirik qalqon sifatida qo'llash; ozodlikdan mahrum etilgan mahbuslarni jangovar harakatlarga jalb qilish orqali batalonlarni tashkil qilish; mahalliy aholidan tashkil etilgan batalonlarning tevarak-atrofni yaxshi bilishini inobatga olgan holda ular bilan harakatchan manyovrlarni amalga oshirish; bo'linmalarni ijtimoiy obyektlarda joylashtirish (shifoxonalar, bolalar bog'-chalari, maktablar, turar joylar); aholi bor xavfli obyektlarni va joylarni minalashtirish shular jumlasidandir.

Yuqoridagi tendensiyalar jangovar harakatlarni olib borish tezligini pasaytiradi va dushman qo'shinlarining oldiga qo'yilgan maxsus, jangovar harakatlarning maqsad va vazifalariga o'z vaqtida erishda to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida kelib chiqib quyidagilarni aytish mumkin:

-shahar janglarida harbiy raz-vedkaning ahamiyati va maxsus operatsiya kuchlarining kichik bo'linmalari tomonidan nishonlarni aniq mo'ljalga olish va yo'q qilish vositalarining roli kuchayadi;

- tez o'zgaruvchan taktik vaziyatda aloqaning uzluksizligini va boshqaruv organlarining o'zaro aloqalarini ta'minlash muhim omillardan biri ekanligini shahar janglari yana bir bor ko'rsatib bermoqda;

